

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**MUSTAQIL O‘ZBEKISTONDAGI
ISLOHOTLARNING NAZARIY
KONSEPTUAL ASOSLARI**

2023

**Hayitov Sh.A. tarix fanlari doktori,
professor**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**“MUSTAQIL O‘ZBEKISTONDAGI ISLOHOTLARNING
NAZARIY KONSEPTUAL ASOSLARI”**

MODULI BO‘YICHA

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

O‘zbekiston tarixi

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: Sh.A.Hayitov tarix fanlari doktori, professor.

Taqrizchi: K.J.Raxmonov tarix fanlari nomzodi, dotsent.

**O‘quv -uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Ilmiy
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2022 yil “30” dekabdagi 5-sonli bayonnoma)**

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	5
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI	10
III. NAZARIY MATERIALLAR	24
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	84
V. GLOSSARIY	98
VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI	107

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

“Mustaqil O‘zbekistondagi islohotlarning nazariy konseptual asoslari” modulini ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘rganishda tinglovchilar 1991-2020 yillarda O‘zbekistonning eng yangi tarixi yuz bergan o‘zgarishlarni, amalga oshirilgan islohotlarning nazariy konseptual masalalarni yangi chop etilgan darsliklar, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalarni tahlil etilishi natijasida o‘zlashtiradilar.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Mustaqil O‘zbekistondagi islohotlarning nazariy konseptual asoslari” modulining maqsadi: O‘zbekistondagi islohotlarning nazariy konseptual masalalari bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish, geosiyosat yo‘nalishidagi ta’lim jarayonini muvofiqlashtirish va mazmunan boyitish, o‘qitish samaradorligini oshirishga yordam beradigan zamonaviy yondashishlar hamda pedagogik va axborot texnologiyalar bilan tanishtirish, zamonaviy geosiyosat sohasida yuksak malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash sifatini oshirishdan iborat.

“Mustaqil O‘zbekistondagi islohotlarning nazariy konseptual asoslari” modulining vazifalari:

- “O‘zbekiston tarixi” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;
- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;
- mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta’minlash;
- Respublika oliygohlarida O‘zbekistondagi islohotlarning nazariy konseptual masalalari ta’limi strukturasi muvofiqlashtirish;
- Respublika oliygohlarida O‘zbekistondagi islohotlarning nazariy konseptual masalalari ta’limining mohiyatini mukammallashtirish;
- O‘zbekiston tarixiy tadqiq usullarini eng qadimgi davrdan hozirgi kunlarga bo‘lgan jarayonni va jamiyatning rivojlanishiga qo‘shgan hissasi va ahamiyatini tinglovchilarga yetkazish;

- Respublika oliygohlarida O'zbekistondagi islohotlarning nazariy konseptual masalalarini o'qitish metodikasining asosiy muammolari, ta'lim-tarbiya jarayonini zamon talablariga mos holda tashkil etish va boshqarish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Mustaqil O'zbekistondagi islohotlarning nazariy konseptual asoslari” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida **tinglovchilar:**

- jahon yetakchi universitetlarining o'quv metodlari;
- O'zbekistondagi islohotlarning nazariy konseptual asoslari moduli bo'yicha adabiyotlar va o'quv qo'llanmalari strukturasi;
- jahon va respublikamizning O'zbekistondagi islohotlarning nazariy konseptual asoslari fanining rivoji haqida **ko'nikmalariga ega bo'lishi** lozim.
- “Mustaqil O'zbekistondagi islohotlarning nazariy konseptual asoslari” fanidan tinglovchilar har bir O'zbekiston tarixiy davrida O'zbekiston tarixiy tadqiqotlar ko'lamini, har bir davrning o'z dolzarb muammosini tadqiqotlarning metodologik asoslarini mukammal bilish **malakalarini egallashi** lozim.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

Fan mazmuni o'quv rejadagi **“O'zbekiston tarixi fanidagi innovatsiyalarni ta'lim tizimiga tadbiq etilishi”** o'quv moduli bilan uzviy bog'langan holda tinglovchilarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar O'zbekistondagi islohotlarning nazariy konseptual asoslari moduli orqali xorijiy tajribalarni o'rganish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar va yo'nalishga mos zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtiradilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat			
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi		
			Jami	jumladan	
				Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot
1.	O'zbekistonning o'ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo'li	2	2	2	
2.	O'zbekistonda bozor munosabatlarining shakllanishi, iqtisodiy islohotlarning jadallashuvi	2	2	2	
3.	2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi	2	2	2	
4.	Davlat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari	2	2	2	
5.	Milliy davlat tizimining barpo etilishi	2	2		2
6.	Siyosiy islohotlarning boshlanishi	2	2		2
7.	O'zbekistonda bozor munosabatlarining shakllanishi, iqtisodiy islohotlarning jadallashuvi	2	2		2
8.	Iqtisodiy islohotlarning besh tamoyilining amal oshirilish mexanizmi	2	2		2
9.	Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi	2	2		2
10.	Tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar	2	2		2
Jami		20	20	8	12

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1 – mavzu: O'zbekistonning o'ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo'li.

Reja:

1. XX asr 80-yillarida sovet davlatidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tanazzulining O'zbekistonga ta'siri.
2. "Paxta ishi" qatag'onlariga barham berish borasidagi amaliy harakatlar.
3. Siyosiy islohotlarning boshlanishi.

2 – mavzu: O‘zbekistonda bozor munosabatlarning shakllanishi, iqtisodiy islohotlarning jadallashuvi.

Reja:

1. Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi.
2. O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarning shakllanishi, uning yo‘nalishlari, bos-qichlari va xususiyatlari.
3. Iqtisodiy islohotlarning besh tamoyilining amal oshirilish mexanizmi.

3 – mavzu: 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi.

Reja:

1. Jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish va isloh qilish.
2. Davlat dasturlari va hududiy dasturlar doirasida aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarning belgilanishi.

4 – mavzu: Davlat va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari.

Reja:

1. Davlat boshqaruviga yangicha uslublarni joriy etish.
2. Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Milliy davlat tizimining barpo etilishi.

Reja:

1. Boshqaruvda yangi usullarning shakllantirilishi.
2. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati qaror topishi.

2-mavzu: Siyosiy islohotlarning boshlanishi.

1. Jamiyatni demokratlashuvida ommaviy axborot vositalarining roli.
2. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yoʻlidagi harakatlar.

3-mavzu: Oʻzbekistonda iqtisodiy islohotlarning jadallashuvi.

Reja:

1. Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi, bosqichlari va rivojlantirilishi.
2. Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilinishi.

4-mavzu: Iqtisodiy islohotlarning besh tamoyilining amal oshirish mexanizmi.

Reja:

1. Bank-moliya tizimini mustahkamlash.
2. Erishilgan yangi marralar.

5-mavzu: Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi.

Reja:

1. Iqtisodiyotni rivojlantirish va libe-rallashtirishning ustuvor yoʻnalishlari, ijtimoiy sohani rivojlantirish boʻyicha belgilangan vazifalar.
2. Oʻzbekistonda chuqur oʻylangan oʻzaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yoʻnalishlarning belgilanishi.

6-mavzu: Tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yoʻnalishlar


1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan doʻstlik aloqalari qoʻmitasining tuzilishi.
2. Xorijiy mamlakatlar bilan doʻstlik aloqalari qoʻmitasining vazifalari va funksiyalari.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

1. “VENN DIAGRAMMASI” GRAFIK ORGANAYZERI (GO)

Ta’lim oluvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarini shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

GO quyidagi sxema (grafik tasvir)ga ega bo‘lib, topshiriq shu sxema asosida bajariladi:



Grafik organayzer ta’lim oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

2. “Keys-stadi” texnologiyasi

“Keys-stadi” (ingliz tilida “case” – metod, “study” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) texnologiyasi ta’lim oluvchilarda aniq, real yoki sun’iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat

qiladi. U ta'lim oluvchilarni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o'rganish va tahlil qilishga o'rgatadi.


Texnologiyaning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi.

Bular quyidagilardir: ta'lim shakllari, ta'lim metodlari, ta'lim vositalari, ta'lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to'plash, ularni o'rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi ta'limiy aloqaning usul va vositalari, o'quv natijalari.

3. “Konseptual jadval” GO

Ta'lim oluvchilarni o'rganilayotgan mavzu (masala yoki muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlari bo'yicha taqqoslashga o'rgatadi. Undan foydalanishda ta'lim oluvchilarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma'lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Mashg'ulotlar chog'ida GOdan quyidagicha foydalaniladi:



4. “Klaster” GO

“Klaster” (g'uncha, to'plam, bog'lam) grafik organayzeri puxta o'ylangan strategiya bo'lib, uni ta'lim oluvchilar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlarda qo'llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

5. “Konferensiya” metodi

Texnologiya ta'lim oluvchilarga ular tomonidan mavzu bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni erkin bayon qilish, mazmunini o'z fikri, hayotiy misollar yordamida yoritilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'quv jarayonida texnologiyadan foydalanish o'rganilayotgan muammo bo'yicha muayyan masalalarni hal etish, ma'lum jarayon (voqelik, hodisa)ning kelib chiqish sabablari, ularni bartaraf etish yo'llarini topish asosida ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, fikrini isbotlash va turli vaziyatlardan chiqib olish ko'nikma, malakalarini hosil qiladi.

Texnologiya tarbiyaviy xarakterga ega bo'lib, ta'lim oluvchilarga o'zlarida ijobiy fazilatlarni ko'proq shakllantirish, salbiy xislatlardan esa voz kechishlarida yordam beradi.

6. “Kichik guruhlarda ishlash” metodi

Metod ta'lim oluvchilar tomonidan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida pedagogik faoliyatni tashkil etishga oid rejani ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo'llash ta'lim oluvchilardan o'rganilayotgan mavzu mazmunini puxta o'zlashtirish, asosiy g'oyalarni umumlashtirish, ma'lum tizimga solish layoqatiga ega bo'lishni taqozo etadi.

Metod ta'lim oluvchilar faoliyatini juftlik, guruh va jamoa asosida tashkil etish imkonini beradi. Uni ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, volontyorlik harakatlarini olib borish, pedagogik amaliyotni tashkil etishda qo'llash yanada samarali hisoblanadi.

Odatda rejani ishlab chiqishda pedagogik vaziyat, ta'lim oluvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari, ma'naviy-ma'rifiy ishning yo'nalishi, mazmuni hamda samaradorlikka erishish imkoniyatiga egalik inobatga olinadi.

7. “FSMU” metodi

Grafik organayzer ta'lim oluvchilarda o'rganilayotgan mavzu yuzasidan fikrlarni mustaqil bayon etish, shaxsiy mulohazalarni dalillash (misollar bilan asoslash), bahslashish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim oluvchilarga quyidagi sxema bilan ishlash tavsiya etiladi:


№	Тушунчалар	(Ф)	(С)	(М)	(У)
1.	Таълим методлари				
2.	Таълим воситалари				
3.	Таълимни ташхис қилиш				

8. “Qarorlar shajarasi” (“qaror qabul qilish”) strategiyasi

Strategiya muayyan fan asoslariga oid bir qadar murakkab mavzularni o‘zlashtirish, ma’lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, muammo yuzasidan bildirilayotgan bir nechta xulosa orasidan eng maqbul hamda to‘g‘risini topishga yo‘naltirilgan texnik yondashuvdir. U avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qarorlarni yana bir bora tahlil qilish, uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Ta’limda strategiyani qo‘llash o‘rganilayotgan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish) uchun ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variantni tahlil qilish, maqbul va nomaqbul jihatlarini aniqlash imkoniyatini yaratadi.

Unga ko‘ra mashg‘ulotlarda ta’lim oluvchilar quyidagi chizma asosida ishlaydi (u



yoki bu tartibdagi faoliyatni olib borishda yozuv taxtasidan foydalanadi):

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida esa berilgan savolga

ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar.

“Aqliy hujum” metodining og'zaki turidan foydalangan holda quyidagi savollar beriladi:

1. Ta'lim jarayonida qadriyatlar tizimining o'rnini ko'rsating?
2. O'zbekistonda ta'limni tashkil etishining asosiy bosqichlarini ochib bering?
3. Ta'lim jarayonining ichki imkoniyatlari va muammolariining muhim jihatlarini ta'riflab bering?
4. Boloniya deklaratsiyasining asosiy yutuqlari va kamchiliklari?
5. Ta'limning insonparvarlashuvi va axborotlashuvida falsafaning rolini ochib bering?
6. Ta'limning qaysi shakllarini bilasiz?

“Aqliy hujum” metodining yozma turidan foydalangan holda quyidagi savollarga yozma to'liqroq variantda javob yozishlari talab etiladi:

1. Ta'lim falsafasining mohiyati nimalardan iborat?
2. Dunyo ta'lim makonida gumanitar ta'limni tashkil etish imkoniyatlari?

Aqliy xujum	-(breynstorming – miya buroni), amaliy va ilmiy muammolarni yechishda jamoa bilan ma'lumot yig'ish
Usulni asosiy g'oyasi	-g'oyalar to'plash, ularni baholash va tahlil qilish, ajratish. “Aqliy hujum”ni olib boruvchining xatti-xarakati uchun bu g'oya asosiy ko'rsatgich bo'lib, ishtirokchilarni imkoniyat qadar ko'p g'oyalar taklif qilishga undaydi.
Qoidalari	Imkoni boricha ko'proq g'oyalarni taklif etish (jamlash), ularni talqin qilish, muammolarni yechish va ularni doskaga yozib qo'yish.
Ta'lim beruvchi	Qatnashchilarni 3-4 guruxga bo'ladi va xar biriga muammolar taklif etadi (Ilova 1) -Ishtirokchilarni qo'llab-qo'vvatlaydi (imo-ishora, jilmayish, xa-yo'q so'zlari bilan); -yumshoq, ammo astoydil talabalarni boshkalarni tanqid

	<p>kilishdan kaytarib turadi;</p> <p>-xar bir fikrni o'zgartirmasdan doskaga yozdirib qo'yadi;</p> <p>-talabalarni so'rovga kirishib ketishiga yordam berish va psixologik tuskinlikni yukotish uchun, oldingi yoki shu darsdan kutilmagan, original savollar berib mashq o'tkazadi (blis so'rov) (Ilova 2).</p>
Fidbeyk	<p>-har bir g'oyani muhokama qilish;</p> <p>-eng to'g'ri g'oyalarni qo'llab-kuvvatlash</p>

3. Aqliy hujumning maqsadi va qoidalari

Aqliy hujumni o'tkazishdan maqsad:

- muammoni hal qilish uchun g'oyalarni topish;
- g'oyalarni ularning ahamiyatliligiga qarab tartiblash;
- faol fikrlash malakasini shakllantirish;
- kutilmagan g'oyalarni paydo bo'lish jarayonini namoyish qilish;
- topilgan g'oyalardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

Aqliy hujum qoidalari:

- ғояларни илгари сурилиши босқичида танқид тақиқланади;
- оригинал ҳатто фантастик ғоялар рағбатлантирилади;
- барча ғоялар ёзиб борилади ёки қайд қилинади;
- агар маъқул топса муаллифнинг ўзи ҳам ёзиб боради;
- “ақлий ҳужум” методида қатнашчилар бир-бири билан юридик ва маъмурий жиҳатдан боғлиқ бўлмаслиги зарур;
- таҳлилчилар гуруҳи нисбатан самарали ғояларни таҳлил қилади, синтез қилади, баҳолайди ва танлайди;
- ушбу тадбирни ўтказишда Кейнснинг “ иқтисодчилар адашсалар ҳам уларни ғояси келажак учун хизмат қилади” деган қоидасига амал қилиш.

Natija:

- talabalar tomonidan muayyan nazariy bilimlarni puxta o‘zlashtirishga erishiladi;
- vaqt ajratiladi va qilinadi;
- har bir talaba faollikka intiladi;
- ular da erkin fikrlash layoqati shakllanadi.


“LOYIHA” metodi



“Loyiha” metodi - bu ta’lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo‘yicha axborot yig‘ish, tadqiqot o‘tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta’lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Bu jarayonda ta’lim oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning yechimini topishdan iborat. Ta’lim oluvchilar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo‘lishi va u ta’lim oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo‘llay olishni talab qiladigan topshiriq bo‘lishi kerak.

Loyiha o‘rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiiq etishi, ta’lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo‘lishi kerak.

Quyidagi chizmada “Loyiha” metodining bosqichlari keltirilgan.



“Loyiha” metodining bosqichlari

ILMIY MAQOLA LOYIHASINI TAYYORLASH

Ta'lim oluvchilarga modul mavzulari doirasida erkin mavzu tanlaydilar, ular mavzu hususiyatidan kelib chiqqan holda o'z ilmiy maqolalarini tayyorlaydilar (hajm 4-5 varaqqacha)

“Insert jadvali”

Tinlovchilarda ma'ruzalar va mustaqil ta'lim jarayonida olgan bilimlari asosida nazariy ma'lumotlarni tizimlashtirishib uni tasdiqlash, aniqlashtirish yoki rad etish, qabul qilinayotgan ma'lumotlarning tushunarligini nazorat qilish avval egallagan bilimlarini yangisi bilan bog'lash qobiliyatlarini shakllantiradi. Tinglovchilar ushbu jadval asosida darsda olgan bilimlarini o'z bilimlari bilan taqqoslaydi, mavzu bo'yicha mustaqil ishlab, yangi ma'lumotlar oladi, ularni matnda qo'yilgan belgilar asosida jadvalga kiritadi.

Namuna:

Insert jadvali

“O'ZBEKISTONDA TA'LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR”

V	+	-	?

“V”- haqidagi bilimlarimga javob beradi;

“+” haqidagi bilimlarimga qarama-qarshi;

“-” yangi ma'lumotlar

“?” mavzuga oid tug'ilgan savollar

“T-jadval” metodi

Jadval shaklida berilgan topshiriqni mohiyatiga ko'ra qiyosiy taqqoslashni amalga oshirish talab etiladi. Jadvalning o'ng va chap tomonlariga masalaning bir-biriga zid holatlari bayon etiladi, masala yechimi yuzasidan yakuniy xulosaga kelinadi.

Namunalar:

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ta'limning o'ziga xos xususiyatlari	


Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining yutuq va kamchiliklari	

«FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.



FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Namuna: “Dinlarni o‘rganishda samarali uslublardan biri mintaqaviy yondashuv” fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod qatnashchilarning yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash maqsadida qo‘llaniladi.

“Tushunchalar tahlili” metodini amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;

- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual tartibda);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: “Mavzuga oid tushunchalar tahlili”

Tushuncha	Hal qiluvchi kuch	Samarasi nimada aks etadi	Yondashuvni ilgari surgan olimlar
<i>Qiyosiy dinshunoslik</i>			
<i>Vijdon erkinligi</i>			
<i>Din sotsiologiyasi</i>			
<i>Totem</i>			

Izoh: Bo‘sh ustunlarga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn
“V” – <i>tanish ma’lumot.</i>		
“?” – <i>mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak</i>		

<i>“+” bu ma’lumot men uchun yangilik</i>		
<i>“- ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?</i>		

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo’lgan ma’lumotlar o’qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to’liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg’ulot yakunlanadi.

“Bumerang” texnologiyasi

Maqsadi: o’quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko’nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo’llash samarali natijalarni beradi.

Amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni 5 daqiqa davomida sinchiklab o’rganish talab etiladi. .
2. Navbatdagi bosqichda trener-o’qituvchi guruh a’zolarini o’qilgan ma’lumot haqida fikr almashinish imkoniyatini beradi. Bu vazifa uchun 5 daqiqa vaqt beriladi.
3. Navbatdagi bosqichda trener-o’qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat boshqa kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarining xar biri o’qigan ma’lumot haqida fikr almashinish imkoniyatini beradi. Bu vazifa uchun 10daqiqa vaqt beriladi.
4. Barcha dastlab shakllangan guruxlarga ishtirokchilar qaytadi, va fikr almashingan ma’lumot yuzasidan boshqa guruhlarga berish uchun savol shakllantiradi.
5. Har bir guruxdan 1 kishi savol beradi, va to’g’ri javob uchun 1-3 gacha ball qo’yiladi.
6. Trener-o’qituvchi barcha guruhlar to’plagan ballarni umumlashtirib, g’olib guruhni e’lon qiladi.
7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo’yicha o’zlashtirish

darajalari aniqlanadi.

“Bumerang” texnologiyasi asosida vazifa: Olingan materialni mazmunini tushunib olishga xarakat kiling, so‘ng guruhda muxokama qiling

1- guruxga vazifa	<p>Multiskript bu axborot uzatishning o‘ziga xos shakli bo‘lib, bir tomondan katta hajmdagi videomateriallar bilan ishlashni osonlashtirsa, ikkinchi tomondan o‘z ichiga matn, audio va video kabi bir qancha mediyaviy formatlarni oladi. Bizni qiziqtirgan videotasma fragmenti hamda bu fragmentga tegshli transkriptni tez va katta aniqlikda tanlab olish mumkin. Multiskript o‘z ichiga uchta blokni oladi – pleer, “stenogramma” va “mazmun”. Videomaterialni ko‘rish uchun pleer tagida joylashgan “Play” piktogrammasini bosish kerak. Videotasmaning bizni qiziqtirgan fragmentini ko‘rishni uch yo‘l bilan amalga oshirsa bo‘ladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - pleer tagida joylashgan kursor yordamida; - “Stenogramma” blokida mant fragmentini bosib; - “Mazmun” blokida sarlavhani aktivlashtirish orqali
2- guruxga vazifa	<p><i>Slayd-shou. Fotolentadan shunisi bilan farq qiladiki, unda suratlar fotofilm rejimida mustaqil ravishda varaqlanadi. Suratlar ssenariy asosidagi ketma-ketlikda qo‘yiladi. Slayd-shou ovoz bilanbirgalikda audio-illustriyasiya elementlarini, ya’ni audiositatalar, shovqin, ovozli effektlar, axborot bilan to‘yintirilgan matnni o‘z ichiga olishi mumkin. Vizual ketma-ketlik ixtiyoriy. Ular voqea joyidan olingan suratlar yoki arxiv kadrlari, hujjatlar, xaritalar, skrinshotlar, karikaturalar va h.k. bo‘lishi mumkin. Bu texnologiya reportaj, ocherk, ba’zida yangiliklarni illustriyasiya qilish uchun kerak.</i></p>
3- guruxga vazifa	<p><i>Audioslayd-shou – zamonaviy jurnalistikaning multimediyaviyligi sabab yaratilgan fotoillustriyasiyalashtirishning sintetik varianti bo‘lib, mustaqil janrga aylandi. Bu tushuncha 2000 yillarda paydo bo‘lgan. Ba’zi fotograflar fotoreportajlarining taqdimoti uchun slayd-shoulardan foydalanib, unga tadbirda yozib olingan ovozni qo‘llaganlar. Keyinchalik bu usuldan katta nashriyotlar foydalana boshladilar. Audioslayd-shou tanlab olingan fotosuratlar va ularga qo‘yilgan ovozdan iborat. Ovoz sifatida musiqiy kompozitsiya yoki muallif o‘qigan matn bo‘lishi mumkin. Mazmunning asosi bo‘lib, tashqi shovqin, ovozli effekt, audiositata yordamida berilgan hikoya xizmat qilishi mumkin. Vizual qator sifatida voqea sodir bo‘lgan joydan olingan suratlar, yoki arxiv kadrlari, hujjatlar, karikaturalar va h.k. olinishi mumkin.</i></p>

4-guruxga vazifa

- *Panoramali fotografiya – obzor burchagi katta bo‘lgan fotografiyadir. Ommaviy voqealarni yoritishda, ob’ektlarni, peyzaj, joylarni tasvirga olishda ularning masshtabini ko‘rsatishda aktualdir.*
- *Interaktiv foto – shunday fotografiyaki, unga maxsus metkalar qo‘yilgan bo‘lib, ularni bosganda matn, video, ssylka, ijtimoiy to‘rlarning statuslari chiqadi.*

III. NAZARIY MATERIALLAR

1 – mavzu: O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li.

Reja:

1. XX asr 80-yillarida sovet davlatidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tanazzulining O‘zbekistonga ta’siri.
2. “Paxta ishi” qatag‘onlariga barham berish borasidagi amaliy harakatlar.
3. Siyosiy islohotlarning boshlanishi.

Tayanch so‘zlar: milliy qadriyatlar, fuqarolar ma’naviyati, milliy kadrlarning shakllanishi, jahon iqtisodiy tizimiga qo‘shilib borish, sho‘rolar mustabid tuzumi.

XX asr 80- yillarida sovet davlatidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tanazzulining O‘zbekistonga ta’siri

Har qanday jamiyat taraqqiyoti, uning u yoki bu zamon va makondagi darajasi ko‘p jihatdan fuqarolar ma’naviyati, turmush tarzi, kishilarning ma’naviy-moddiy, ijtimoiy ehtiyojlari hamda ularning qay darajada qondirilishiga bog‘liq. Mustaqillik davrigacha va undan keyingi o‘tgan tarixan qisqa muddat ichida ro‘y bergan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy–mafkuraviy sohadagi o‘zgarishlar bizga sovet mustabid tuzumi hamda istiqlol yillarida O‘zbekistonning real hayotida holisona javob izlash va unga erishishga imkon beradi.

O‘zbek milliy davlatchilik tarixi, eng avvalo, ma’naviyatning jamiyat hayotida muhim o‘rin egallaganligi bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu azaliy an’anaga mustaqillik yillarida ham alohida e’tibor berilishi muhim ahamiyatga ega. Ta’kidlash joizki, istiqlolning dastlabki yillaridanoq madaniyatning metodologiyasi o‘zgardi. Agarda sho‘rolar mustabid tuzumi davrida madaniyatning asosiy vazifasi jamiyat a’zolarining kommunistik mafkura va soxta g‘oyaga e’tiqodini mustahkamlashga safarbar etish bo‘lsa, istiqlol davrida u tamomila boshqa maqsadga xizmat qila boshladi.

Bu omillar eng avvalo, mamlakat hukumatining ma’naviy-ma’rifiy omillarga

nisbatan munosabati shakllandi. Jumladan, ma'rifiy-ma'naviy islohotlar davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi, deb belgilandi. Joylarda ma'naviyat bilan bog'liq tadbirlarning amalga oshirilishi uchun butun mas'uliyat hokimlar, vazirliklar, idoralar, tashkilotlarning birinchi rahbarlari zimmasiga yuklatilishi juda katta ijtimoiy ahamiyat kasb etdi.

Ikkinchidan, ma'naviyati yuksak millat va davlatgina kelajagi buyuk bo'lishi mumkin ekanligi to'g'risidagi ijtimoiy fikr shakllana boshladi.

Uchinchidan, ma'naviyat va ma'rifat jamiyatni sog'lomlashtiruvchi kuch ekanligi e'tirof etildi, zero, sovet mustabid tuzumi davridan qolgan "ma'naviy" merosdan xalos bo'lmay turib, istiqlolga xizmat qiladigan, fuqarolar qalbi va ongini yangilashga qodir ma'naviyatni shakllantirish mumkin emas.

To'rtinchidan, istiqlol davri O'zbekiston jamiyati ma'naviyatining eng muqaddas maqsadlaridan biri-o'tmish tarixiy-madaniy, ilmiy, axloqiy-mafkuraviy, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlariga sovetlar davrida tarkib top-gan munosabat kabi "illat" sifatida emas, aksincha, jamiyatni poklantiruv-chi va kelajakni ma'naviy jihatdan mustahkamlovchi omil deb qarashdan iborat jamoatchilik fikri shakllandi.

Beshinchidan, istiqlol davrida ma'naviyatning har qanday siyosiy hukmron mafkuralardan xoliligi, muhimi, shakllanayotgan milliy mafkuraning ma'naviyat bilan uyg'unligi ta'minlandi. Haqiqatdan ham, mustaqillik yillarida ma'naviyat va ma'rifatning ijtimoiy maqsadi aniqlab olindi. Uning bajarilishi lozim bo'lgan vazifalari belgilandi. Ana shunday sharoitda jamiyat fuqarolari tomonidan bildirilgan ijti-moiy ehtiyoj - ma'naviy-ma'rifiy sohalarda yangi asr va umuman, uchinchi mingyillikdagi bosh g'oya qanday bo'lishi aniqlandi.

Respublika Markaz tomonidan ishlab chiqilgan va besh yillik rejalarda aks ettirilgan yo'l-yo'riqlarga amal qilishga majbur edi. Urushdan keyingi besh yilliklarda ko'rsatilgan vazifalarga respublika rahbariyati tomonidan ba'zi aniqliklar kiritish ham Markazning ruhsati bilan amalga oshirilardi.

Besh yillik rejalarining bajarilishi bir tomonlamalilik xususiyatlariga ega edi. Asosiy e'tibor mashinasozlik, metallurgiya, kimyo sanoatini rivojlantirishga, ayniqsa gaz qazib olishni rivojlantirishga va ko'paytirishga qaratilgandi.

Markazning mo'ljaliga ko'ra, 1970 yilga kelib O'zbekiston gaz qazib olish, mineral o'g'itlar ishlab chiqarish bo'yicha ittifoqda uchinchi o'rinni mashinasozlik va metallga ishlov berish hajmi bo'yicha to'rtinchi o'rinni egallab, ittifoqni gaz va boshqa xom ashyo bilan ta'minlovchi respublikaga aylanishi lozim edi. Respublikaning yetakchi viloyatlari (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona) hududlarida yagona energetika tizimi yaratilgan bo'lib, u iqtisodiyotni, birinchi navbatda uning ustivor tarmog'i – paxtachilikni yuksaltirish uchun baza yaratishi kerak edi.

Urushdan keyingi besh yillikda o'rtacha 100 va undan ortiq sanoat ob'ekti ishga tushirildi. 1985 yilga kelib O'zbekistonda 1500 dan ortiq yirik ishlab chiqarish, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari va kombinatlar bor edi. Bu davrga kelib, sanoat maxsulotlari ishlab chiqarish 1940 yildagiga nisbatan 20 baravardan ziyodroq oshdi.

Yengil va oziq-ovqat sanoatiga qaraganda, ko'p tarmoqli mashinasozlik industriyasi (traktorsozlik) kimyo, ko'mir, neft, gaz, kon-ruda, oltin qazib chiqarish, ayniqsa, energetika sanoati jadal rivojlantirildi. 60-80 yillarda Angren, Navoiy, Chortoq va boshqa yirik elektr stansiyalar barpo etildi. Chirchiq – Bo'zsuv gidroelektrostansiyalar kaskadi tiklandi, uning umumiy quvvati 300000 kvt.dan ortiqroq edi. O'rta Osiyoda eng yirik – quvvati 3 mln.kvt. bo'lgan Sirdaryo GRESi barpo etildi. Respublikada elektr quvvati ishlab chiqarish 1985 yildla 1940 yilga nisbatan 180 baravar ko'paydi. Energetika tarmog'ining bu darajada rivojlantirilishiga sabab Markazning kundan-kunga respublikadagi yer osti va yer usti boyliklarini qazib olish, qayta ishlash uchun katta miqdorda elektr quvvati kerak bo'lganligida edi.

Mashinasozlik ham jadal rivojlandi, lekin bu tom ma'nodagi mashinasozlik emas edi. Mashinasozlik uchun zarur bo'lgan barcha ehtiyoj qismlar mamlakatning Yevropa qismidan olib kelinar va yig'ilar edi. Metallga ishlov berish sohasi ham shu yo'sinda edi. Metall ham Rossiyadan olib kelinar edi. 80-yillarning boshlarida respublikada ehtiyot qismlar bilan yig'iladigan 100 dan ortiq korxonalar faoliyat ko'rsatardi. Ular orasida qudratli traktorlar ishlab chiqaradigan Toshkent traktor

zavodi (TTZ), paxta terish mashinalari ishlab chiqaradigan «Toshqishloqmash» zavodi, boshqa qishloq xo‘jalik asboblari ishlab chiqaradigan «O‘zbek qishloqmash», Chirchiqqishloqmash, Toshkent ekskavator zavodi va boshqa korxonalar ishlab chiqaradigan maxsulotlarga respublikada va undan tashkarida talab katta edi. Bu korxonalarining faoliyati asosan paxtachilik bilan bog‘liq edi.

O‘zbekistonda yetishtiriladigan paxtaning juda oz qismi (4 %) shu yerda tayyor maxsulot bo‘lib chiqar, qolganlari metropoliya to‘qimachilik sanoati korxonalariga berilar edi. O‘zbekiston metropoliya uchun xom ashyo bazasi bo‘lib qolaverdi.

Bu yerda nodir va noyob: oltin, miss, qo‘rg‘oshin, ruh, volfram, uran, tabiiy gaz, ko‘mir konlari ochilib, shular negizida zavodlar, neft va gaz sanoati korxonalarini qurildi, yangi shaharlar va posyolkalar bunyod etildi. 60-70 yillarda yirik oltin qazib chiqariladigan sanoat yaratildi va tez rivojlana boshladi, oltin saralash kombinati fabrikalari, mis qazib olish va qayta ishlash korxonalarini ishga tushirildi. Jahon andazalariga mos yuqori probali oltin olina boshlandi. Lekin bu boyliklar oxirgi misqoligacha Markazga olib ketilar edi. Respublika o‘z zaminida qazib olinadigan biror-bir boylikning xo‘jayini emas edi, bu ne‘matlardan foydalanish huquqiga ega emas edi. Yirik sanoat korxonalarining asosiy qismi (70%) xususan rangli metallar ishlab chiqarish tarmoqlari Ittifoq hukumati tasarrufida edi. Shuni ta’kidlash kerakki tashib ketilayotgan tayyor maxsulotni hech kim respublika hukumatidan so‘rab o‘tirmas edi. Masalaning mohiyati ham shunda. Umuman ishlab chiqarish jarayonlaridan tortib uni tasarruf va o‘zlashtirishni nazorat qilish faqat haqiqiy «xo‘jayin»larning yalpi nazorati ostida edi.

O‘zbekiston industriyasida kimyo sanoati ustivor bo‘lib, uning to‘ng‘ichi Chirchiq (1940) elektrokimyo kombinati, Qo‘qon (1947) superfosfat, Samarqand (1955) superfosfat zavodlari foydalanishga topshirildi, so‘ngra Farg‘ona azotli o‘g‘itlar, Navoiy kimyo, Olmalik kimyo zavodlari ishga tushirildi. 50-60 yillarda kimyo industriyasining yangi tarmoqlari Andijondagi gidroliz, Farg‘onadagi furun birikmalari, Yangi yo‘ldagi kimyo zavodalari barpo etildi. 80 yillarda plastmassa,

sun'iy tolalar, o'simliklarni himoya qilish vositalari ishlab chiqaradigan 20 korxonalar ishlab turardi. 1985 yilga kelib O'zbekiston SSSRdagi kimyo sanoatining 10 %ini o'zida joylashtiriga ulgurgan edi. Respublika ekologik holatiga juda katta ziyon yetkazdi.

Sanoatdagi holatlar:

- ◆ Sanoatning bir tomonlama rivoji;
- ◆ Maxsulot (yalpi) ishlab chiqarish sur'ati pasayib bordi;
- ◆ Turg'unlik tamoyillari ortib bordi;
- ◆ Davlat rejalari bajarilmadi (1975 yilda 527 korxonalar bajarilmadi);
- ◆ Maxsulot sifati jahon standartlaridan pasayib bordi;
- ◆ Yengil sanoat korxonalari «qoldiq» prinsipiga bog'landi;
- ◆ Ishlab chiqarish quvvatlari pasaydi (70%ga);
- ◆ Hozirgi zamon (imm.texn.rev) yutuqlari joriy qilinmadi;
- ◆ Ish vaqtdan unumli foydalanilmadi (NOT yolg'on edi);
- ◆ Mablag'lardan samarali foydalanilmadi;
- ◆ Korxonalardan olib ketish (o'g'rilik kuchaydi);
- ◆ «Sotsialistik musobaqa» ko'z bo'yamachilikka aylandi.

T.Kardash, M.Yo'ldosheva, D.Kulmatova, A.Devyatova, M.Jo'raeva, L.Kazanseva, M.Muyidinov, Ye.Gubina, Sh.Holmuhammedova ... «bayroq» «qahramon» bo'lishdi.

- ◆ Moddiy manfaatdorlik pasaydi;
 - ◆ Ishlab chiqarish ustidan mustabid tuzum va kommunistik mafkuraning zo'ravonligi;
 - ◆ Ishchining ijodiy faoliyatiga befarqlik;
 - ◆ Ishlab chiqarish munosabatlaridan ishchining begonaligi;
 - ◆ Ijtimoiy-siyosiy faollikning pastligi;
 - ◆ O'zbekiston hududining 5% da 65% sanoatining joylashuvi;
 - ◆ Sanoatning xom ashyodan keladigan daromad hisobidan ta'minlanishi;
- Xizmat ko'rsatish sohasi past rivojlandi (qishloqda) (1983 yil shaharlarda

836000 ishsiz bor edi).

- ◆ Tashqaridan ishchilar oqib kelaverdi;
- ◆ Kadrlar qo‘nimsizligi;
- ◆ Malakali mutaxassislar tayyorlash sifati (FZT, XTT fabrika-zavod ta’limi, hunar-texnika ta’limida) pasaydi.

Dehqonlar yetishtirgan maxsulotlarning harid narxlari urushdan oldin qanday bo‘lsa, shundayligicha saqlanib qoldi, sanoat maxsulotlarining narxi esa 20 baravar oshdi, natijada davlat qishloq xo‘jalik maxsulotlarini suv tekinga oladigan bo‘ldi.

“Paxta ishi” qatag‘onlariga barham berish borasidagi amaliy harakatlar.

L.I.Brejnevning «oq oltinni oltin qo‘llar yaratadi» degan so‘zlari va boshqa juda ko‘p «qanotli» shiorlarda oliyjanob xalqning tuyg‘ulari va mehnatsevarligidan ayovsiz foydalanishdek imperiyacha tamagirlik, uning insoniy ehtiyojlarini nazar-pisand qilmaslik yotardi. Bu vaqtga kelib paxta yakkahokimligi milliy iqtisodiyotni va qishloq aholisi salomatligini kemirdi. Markaz esa borgan sari oziq-ovqat maxsulotlari bilan shartnomalarini barbod etib kelardi. Oziq-ovqat bilan o‘z-o‘zini ta‘minlashni talab etardi. Markaz 2000 yilga kelib O‘zbekistonda paxta yalpi hosilini 8 mln.tonnaga yetkazish dasturini ishlab chiqqan edi.

Iqtisodiyotdagi, ma‘naviyatdagi, ijtimoiy ongdagi o‘zgarishlar jamiyat hayotining barcha tomonlariga o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmadi. Mamlakat XX asr 80-yillari o‘rtalariga kelib g‘oyat keskin tanglik yoqasida turardi.

Davlatning dehqonni talash siyosati ham davom etaverdi, soliqlar ham oshib bordi. Dehqon faqat bitta sigir saqlashi mumkin edi, har bir to‘p meva daraxti va tok uchun soliq to‘lash kerak edi. Shaxsiy tomorqalar miqdori ham kamayib bordi, agar 1950 gacha 0,25 ga bo‘lsa, 1950 yil 1 yanvardan boshlab tomorqa miqdori 0,12-0,15 ga gacha tushirildi. Qishloq aholisiga ish haqi to‘lash deyarli yo‘q bo‘lib, mehnat kunlari esa avvalgiday ramziy edi.

Dehqonning yashash sharoiti urushdan oldingidek: bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib borishi mumkin emas, ularda pasport yo‘q, vaqtincha mehnatga layoqatsizligi uchun haq olmaydi, ularga mehnat ta‘tili va pensiya ta‘minoti tadbiiq etilmaydi, qishloq ijtimoiy sohasi butunlay chetda, xizmat ko‘rsatish sohasi

umuman yo‘q, aholi yarim haroba, chayla, yer to‘lalarda yashaydi, tibbiy xizmat yo‘q, elektr yo‘q, radio yo‘q, yo‘q va yo‘qlardan iborat edi. Maxsulot esa davay, davay, davay edi.

Shuning uchun qishloq xo‘jaligining ahvoli:

- inkirozli va fojiali bo‘lib, aholi qashshoq mehnat unumdorligi past bo‘lgani holda hukumat (markaziy) 1946 yil fevralida qaror qabul qilib besh yillikda paxta tayyorlashni 2,5 baravar ko‘paytirishni talab qildi, reja topshiriqlarini bajarmaslik esa «jinoiy ish» deb baholanardi.

Paxtachilikni rivojlantirish uchun texnikaga e‘tibor kuchaytirildi, 1949 yilda SXM-48 rusumli paxta terish mashinalari ishlab chiqarilib uning soni 1953 yilda 13813 taga yetdi. Paxta uchun ko‘plab yangi maydonlar kerak edi, 1949 yilning aprelida «Mirzacho‘lni yanada o‘zlashtirish tadbirlari to‘g‘risida» hukumatning qarori qabul qilindi, shu asosda 1951 yilda o‘zlashtirilgan yer maydonlari 281,4 ming GA ni tashkil etdi.

Paxta yakkahokimligini mustahkamlashga qaratilgan siyosat qishloq xo‘jaligining boshqa tarmoqlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. 1950 yilda 1940 yilga nisbatan don yetishtirish 615,1 ming tonnadan 443 ming tonnaga, uzum 1302 ming tonnadan 840,2 ming tonnaga, poliz ekinlari 331,9 ming tonnadan 153,4 ming tonnaga tushib qoldi.

80-yillar o‘rtalaridan boshlab kompartiya va Sovet davlati rahbariyati «kommunizmga jadal yurish» mafkurasi kolxoz-kooperativ mulki o‘z imkoniyatlarini tugatdi degan fikrni ko‘tarib chiqdi. Kooperativ mulkni ijtimoiy mulkka jadal «yetkazib olish» yo‘li bilan «sotsialistik mulk»ning ikki shakli o‘rtasidagi tafovutni barham toptirishga qaror qildi, shuning uchun ommaviy sovxozlashtirishga o‘tdi. 1957 yilda respublikada 479 jamoa xo‘jaligi negizida 82 ta sovxoz tashkil topdi. 1960 yilga kelib, 1950 yildagi 3316 kolxoz 978 taga qisqartirildi, sovxozlar esa 98 tadan 192 taga ortdi, 1965 yilda esa 297 taga yetdi. Bu dehqonlarning «ishchilarga aylantirilishi» edi. Markaziy hukumat siquvi bilan, O‘zbekistonning «qoloq» jamoa xo‘jaliklari 358,8 million so‘m qarzdor bo‘lishlariga qaramay 1958 yil 1 mayigacha 78 ta MTS 700 kolxozga sotib

yuborildi. Kolxozlar yillar davomida to'plagan bo'linmas jamg'armalaridan ajraldilar. 1958 yilda qishloq xo'jaligi texnikasining narxi 2 marta oshirilgan edi. Shu tariqa davlat o'z yaroqsiz texnikasini kolxozlarga sotib oldi, yoqilg'i, ehtiyot qismlar narxini ko'tarib, kolxozlar hisobiga iqtisodiy ahvolini yana bir marta yaxshilashga erishdi.

O'zbekistonda ilm-fanni, xususan, uni oliy ta'lim tizimida rivojlantirish yo'lida qator konseptual kamchiliklar, qiyinchiliklar mavjud edi. Birinchidan, SSSR tomonidan milliy respublikalarda ilm-fanning barcha sohalarini har tomonlama rivojlantirishdan manfaat yo'q edi, zero, bu narsa milliy kadrlarning shakllanishiga, pirovard natijada milliy o'zlikni anglash jarayoniga ta'sir etar edi. Ikkinchidan, sobiq markaz milliy respublikalarda asosan xom ashyo sohasini rivojlantirishga, asosan qishloq xo'jaligida zarur bo'lgan ilmiy ishlanmalarni tadqiq etishga e'tiborni qaratdi. Uchinchidan, oliy ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar asosan "ijtimoiy buyurtma" asosida "rivojlandi".

Siyosiy islohotlarning boshlanishi

Respublika o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan paytda mamlakat ichkarisida bo'lgani kabi uning tashqarisida ham unga ishonmaydigan, shubha bilan qaraydiganlar bor edi. Ana shunday ziddiyatli va murakkab bir paytda O'zbekiston uchun o'ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo'lini tanlash, yangi jamiyat barpo qilish uchun o'z andazasini ishlab chiqish g'oyat dolzarb va ahamiyatli edi. Bu boradagi dastlabki qadamlar 1990 yil mart oyidayoq sobiq ittifoq respublikalari ichida birinchilardan bo'lib, O'zbekistonda Prezidentlik boshqaruvini tashkil etish, g'oyaviy qarashlari, siyosati yangilanayotgan jamiyatga mos bo'lmayotgan O'zbekiston Kompartiyasini xalq demokratik partiyaga aylantirish, hokimiyatning asta-sekin va izchillik bilan partiya idoralaridan Prezident, hukumat, mahalliy idoralar qo'lga o'tishi, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilib, milliy qadriyatlarning tiklana boshlagani edi.

Davlat O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'lini ishlab chiqar ekan, o'tmishdan, sobiq sovet tuzumidan meros bo'lib qolgan tajribadan saboq chiqardi. Ayni chog'da 90-yillar boshlarida, ya'ni mustaqil taraqqiyotning dastlabki yillarida

amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqur tahlil qilindi. Shu asosda soxta inqilobiy sakrashlarsiz, fojiali oqibatlarsiz va kuchli ijtimoiy larzalarsiz, evolyusion yo‘l bilan normal, madaniyatli taraqqiyotga o‘tish – tanlab olingan yo‘lning asosiy mazmun va mohiyatidir, degan xulosaga kelindi.

Shu asnoda quyidagi tamoyillar vujudga keldi:

Birinchidan, «Biz ijtimoiy taraqqiyot va yangilanish borasida o‘z yo‘limiz bor, deb e‘lon qildik.

«Bozor iqtisodiyotiga o‘tar ekanmiz, milliy-tarixiy turmush tarzimizni, xalqimiz urf-odatlarini, an‘analarimizni, kishilarning fikrlash tarzini hisobga olamiz», - dedi I.A.Karimov 1992 yil 2 iyulda O‘zbekiston Oliy Kengashining X sessiyasida.

Ikkinchidan, respublikada o‘ziga xos ma‘naviy-ruhiy vaziyatdan kelib chiqib ish tutildi. Chunki O‘zbekiston aholisi va mehnat resurslari yildan-yilga oshib boruvchi mintaqadir. *«Sodda qilib aytganda, odamlarni ishxonaga emas, ishxonani odamlarga yaqinlashtirishimiz lozim»* - I.Karimov.

Uchinchidan, O‘zbekiston taraqqiyot yo‘lini ishlab chiqishda respublikaning qulay jug‘rofiy-siyosiy imkoniyatini hisobga olindi.

To‘rtinchidan, O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tishida ijtimoiy ong, ijtimoiy psixologiya masalasini hisobga olish lozimligini ham ko‘rsatib berildi.

Beshinchidan, hukumat mustaqil O‘zbekiston siyosatini belgilashda islom diniga munosabatni tubdan o‘zgartirish lozimligini qayta-qayta uqtirdi va din turmush tarzimizga o‘chmas muhrini bosgan.

Shunday ekan, dinga nisbatan ijobiy munosabat tashqi siyosatimizda, ayniqsa, musulmon davlatlari bilan o‘zaro aloqalarimizni kengaytirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Oltinchidan, O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy va siyosiy mustaqilligini himoya qilish va ta‘minlash imkonini beradigan boy moddiy-ma‘naviy hamda ishlab chiqarish potensialiga va kadrlar qudratiga ega mamlakat ekanligidir. Endi hamma gap ana shu imkoniyatlardan unumli foydalanishda edi.

Ushbu xodisalar I.A.Karimov tomonidan muntazam to'ldirilib, qadamba-qadam yangi qoida va yo'l-yo'riqlar bilan boyitib borildi. Xususan, 1992 yil avgustda O'zbekiston mustaqilligining bir yilligi tantanalari arafasida Prezidentning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» nomli asarida ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Shuningdek, yangilangan jamiyatda yashovchi kishining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini kafolatlovchi yo'llar ham ko'rsatib berildi.

Prezident yangilanayotgan jamiyat mazmun-mohiyatini ko'rsatish bilan birga dolzarb vazifa qilib, eng avvalo bozor iqtisodiga o'tish masalasini qo'ydi. Faqat iqtisodiy davlatgina kuchli bo'ladi va u har qanday islohotlarga qodir bo'ladi.

Nazorat savollari:

- 1.«O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» nomli asarni ilmiy jihatdan asoslab bering.
2. «Sotsialistik musobaqa» mohiyatini izohlang.
3. 80-yillar o'rtalaridan boshlab kompartiya va Sovet davlati rahbariyati «kommunizmga jadal yurish» mafkurasi nimaga asoslangan?
4. Sanoatning bir tomonlama rivoji qanday yuz berdi?
- 5.Maxsulot (yalpi) ishlab chiqarish sur'ati pasayib borishining sabablarini izohlang.
6. Nima sababdan turg'unlik tamoyillari ortib bordi?

2 – mavzu: O'zbekistonda bozor munosabatlarining shakllanishi, iqtisodiy islohotlarning jadallashuvi.

Reja:

1. Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi.
2. O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo'nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari.
3. Iqtisodiy islohotlarning besh tamoyilining amal oshirilish mexanizmi.

Tayanch so'zlar: islohot, bozor munosabatlari, model, xususiylashtirish,

siyosiy, saylov, islohot, iqtisod, bosqich, o‘zbek modeli, tamoyil, zahira, xususiyat, mintaqa, ijtimoiy hayot, mahalla.

Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng uning oldida ikkita taraqqiyot yo‘li turardi. Birinchisi, eskicha, rejali xo‘jalik yuritish siyosatni davom ettirish, ya‘ni ilgari mavjud tartiblarni to‘liq saqlab qolish; ikkinchisi, sobiq sotsialistik, rejali xo‘jalik yuritishdan, ma‘muriy buyruqbozlik boshqaruv usulidan batamom voz kechish va erkin iqtisodiyotga o‘tish.

Shu narsa aniqki, hozir iqtisodiy rivojlanishning hammabop, har qanday davlat uchun birday tavsiya etish mumkin bo‘lgan andozalari yo‘q. Shu bilan birga mustabid sho‘ro tuzumi sharoitida orttirilgan butun tajriba shundan dalolat beradiki, har bir xalq yoki davlatning tarixiy, ijtimoiy- iqtisodiy, milliy-ruhiy, demokratik, tabiiy iqlim va boshqa sharoitlarini, mintaqalarning ob‘ektiv farqini hisobga olmaydigan siyosiy va xo‘jalik tajribasi inqirozga uchrashi muqarrardir.

Bunday sharoitda O‘zbekiston uchun o‘z ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘li va andozasini tanlab olish juda katta ahamiyatga ega edi.

Tabiiyki, bunda O‘zbekiston jahon tajribasidan va o‘z milliy qadriyatlaridan kelib chiqishi, lekin biror-bir mamlakatdan ko‘r-ko‘rona nus‘ha olishdan voz kechishi lozim. Zero, dunyoda bir-biriga o‘xshash ikkita odam bo‘lmaganidek, ikkiga bir-biriga o‘xshash davlat ham bo‘lmaydi.

Ammo, mustaqillikning dastlabki davrida O‘zbekiston rahbariyati va xalqi uchun bir narsa aniq edi. U ham bo‘lsa mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanlab bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish. Jahon tajribasini ilmiy tahlil qilish va aql-idrok shundan dalolat bermoqda.

Iqtisodiyotni rivojlantirishning bozor munosabatlariga o‘tish g‘oyat murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilish, eng muhimi ijtimoiy larzalarsiz, qat‘iyat va izchillik bilan jamiki kuch-qudrat va boyliklardan samarali foydalanib, taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga chiqib olishini ta‘minlaydigan qudratli iqtisodiy zaminni vujudga keltirishni talab etardi. Albatta, bu muammolarni darhol, bir

zumda hal qilib bo'lmaydi. Buning uchun uzoq davr, aniq maqsad, fidokorona mehnat va eng asosiysi aniq-ravshan dastur bo'lishi zarur. Bunday aniq dasturni ishlab chiqish uchun bizda tajriba yo'q edi. Jahon tajribasi ko'rsatishicha bozor iqtisodiyotiga inqilobiy (jadal) yoki tadrijiy (evolyusion) yo'l bilan ya'ni bosqichma-bosqich o'tish mumkin. Birinchi holda eski tarkib topgan iqtisodiy munosabatlarni batamom sindirib tashlash yoki "falaj qilib davolash" (shokovaya terapiya) tushunilsa, ikkinchi holda esa yangisini qurmay, eskisini buzma degan asosda asta-sekin yangi tizimga o'tish tushuniladi.

Demak, tartibga solinadigan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llarigina emas, balki uning andozalari ham turli mamlakatlarda turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, Turkiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Polsha, AQSh andozalari va hokazo. Jumladan "amerikacha andozada" erkin bozor munosabatlari kuchli rol o'ynasa, yapon na fransuz andozalarida xo'jalik faoliyatini tashkil qilishda davlatning ishtirokiga katta ahamiyat belgiladi. Nemis va ingliz andozalarida ustivor yo'nalish ijtimoiy soha hisoblanadi. Lotin Amerikasi va Afrikaning rivojlanayotgan mamlakatlari esa asosiy e'tiborni iqtisodiyotni barqarorlashtirishga, budjet kamomadini keskin kamaytirishga, ilk bosqichda narx-navoni erkin qo'yib, keyinchalik tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratiladi.

O'zbekiston jahondagi ko'plab mamlakatlar tajribasini o'rganib, ularning bizga mos keladigan ijobiy tomonlarini olib o'z xalqi amaliyotiga tayangan holda o'zining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'lini tanlab oldi.

Shuning uchun ham u xalq tomonidan juda iliq kutib olindi va bajarilmoqda. Shuning uchun ham islohatlar strategiyasi va ustivor yo'nalishlarni belgilab olishda bozor asoslarini vujudga keltirish, mulkchilik munosabatlarini o'zgartirish, bozor infratuzilmalarini shakllantirish, moliya va bank tizimini qayta tashkil etish, barcha darajalardagi boshqaruvning mutlaqo yangi tizimini barpo etish asosiy vazifalar qilib ko'rsatildi.

Xo'sh! Iqtisodiy islohatlar qachon, qanday sharoitda samara beradi? Qachonki, huquqiy me'yor va qoidalar bilan ta'minlansa, qonunlar bilan

kafolatlansa. Bozor iqtisodiyotining qonunchilik asosini yaratish. Bu faqat o'tish davrining majburiy shartigina bo'lib qolmay, balki huquqiy davlatni barpo etishning o'ziga xos hususiyati hamdir. Shu bilan birga bu uzoq davom etadigan, murakkab va muttasil takomillashtirilib boradigan jarayondir.

Hozir O'zbekistonda iqtisodiy munosabatlarni isloh qilishning huquqiy asoslarini yaratuvchi o'nlab qonun hujjatlari qabul qilingan. Bular "Mulkchilik to'g'risida", "Korxonalar to'g'risida", "Tadbirkorlik to'g'risida", "Banklar va bank faoliyati to'g'risida", "Soliklar to'g'risida", "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida", "Chet el investitsiyalari to'g'risida" va boshqa qonunlardir.

Bozor iqtisodini rivojlantirib va takomillashtirib borish uning huquqiy ta'minlanishini ham mustaxkamlab borishni taqozo etadi. Demak, qonunlar hayotiy, amaliyot oilan o'zviy bog'liq bo'lishi va undan kelib chiqmog'i kerak. Shu bilan birga qonun xujjatlari bevosita ta'sir ko'rsatish kuchi ega bo'lishi ham lozim. Buning uchun esa qonunlar pishiq-puxta bo'lishi, masala ko'rilayotganda sansanorlikni kamaytirishi kerak.

Shuning uchun ham qonunga bo'ysunish bozor munosabatlariga o'tishning barcha amal qilishi kerak bo'lgan yetakchi tamoyillaridandir. Zero qonunchilik va huquq-tartibot tantana qilmas ekan, huquqiy davlat qurishni tasavvur qilib bo'lmaydi. Iqtisodiy islohotlarning huquqiy asoslarini yaratilishi ham bozor munosabatlarining eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, dunyodagi hamma mamlakatlar uchun maqbul bo'lgan bir xil taraqqiyot yo'li, bir xil andoza bo'lishi mumkin emas. Hozirda bozor iqtisodiyotiga o'tishning turli modellari mavjud bo'lib, ular barcha mamlakatlarni bitta manzilga-erkin bozor iqtisodiyoti tizimiga olib keladi. Ammo, bozor munosabatlari shakllanishining sotsial – iqtisodiy, tarixiy, milliy va xalqaro sharoiti har xil bo'lganligi tufayli, unga o'tishning milliy xususiyatlari ham mavjud bo'ladi. Shu nuqtai nazardan biror mamlakatning taraqqiyot yo'lini yoki taraqqiyot modelini borligicha qabul qilib bo'lmaydi. Natijada o'ziga xos yo'lni tanlash muhim hisoblanadi.

Shunday qilib, O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li nazariy va amaliy

jihtadan puxta belgilab olindi. Bu barcha tamoyillar demokratik va iqtisodiy qayta o'zgartishlar jarayonlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, hayot sinovidan o'tdi. Amaliy islohotlar jarayonida, xususan XXI asr arafasi va uning dastlabki yillarida mamlakatimizning rivojlanish strategiyasi, islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilash borasidagi faoliyatimizni jadallashtirish maqsadida bu tamoyillar Oliy Majlisning XIV sessiyasida (1999 yil 14 aprel) kuyidagi oltita ustuvor yo'nalish bilan to'ldirildi:

- Mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish.
- Jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish.
- Kadrlar masalasi.
- Xalq turmush darajasining izchil va barqaror o'sishi, aholini yanada kuchli ijtimoiy himoya qilish.
- Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash.
- Jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni, sarhadlarimiz daxlsizligini, mamlakatimiz yaxlitligini ta'minlash.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti O'zbekiston davlat suverenitetining iqtisodiy asosi bo'lib qoldi. Bu yo'lni shakllantirish uchun iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga kirishildi. Avvalo, iqtisodiy islohotlarning qo'yidagi strategik maqsadlari belgilab olindi:

- ✓ ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodini bosqichma-bosqich shakllantirish, milliy boyliklarning o'sishini, kishilar turmushi va faoliyati uchun munosib sharoitni ta'minlaydigan kuchli va muntazam rivojlanib boruvchi iqtisodiy tizim yaratish;
- ✓ ko'p ukladli iqtisodiyotni yaratish, kishining mulkdan begonalashuvini bartaraf etish, tashabbuskorlik va tadbirkorlikning har taraflama o'sishi uchun asos bo'ladigan xususiy mulkchilikning davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash;
- ✓ korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish, ularning xo'jalik ishlariga davlatning to'g'ridan-to'g'ri aralashuvidan voz kechish, iqtisodni

boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik usullarini yo'q qilish, iqtisodiy vositalar va rag'batlantirishlarni keng qo'llash;

- ✓ moddiy, tabiiy va mehnat resurslaridan unumli foydalanishni, raqobatbardosh tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish va jahon iqtisodiyot tizimiga kirib borishini ta'minlaydigan chuqur iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirish;
- ✓ iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlar qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish;
- ✓ jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilib borish;
- ✓ kishilarda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o'zgartirish, har bir kishiga o'z mehnatini qo'llash sohalari va shakllarini o'zi mustaqil belgilab olishi uchun imkoniyat yaratish.

Strategik maqsadlar asosida iqtisodiy islohotlarning asosiy va muhim tomonlari aniq belgilab olindi. Eng avvalo, birmuncha o'tkir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yaqin vaqtlar ichida hal etishga yordam beradigan asosiy tarmoqlarni rivojlantirishga e'tibor qaratildi.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirildi:

- ✓ mulkiy islohotlar;
- ✓ institutsional va moliya – kredit islohotlari;
- ✓ agrar islohotlar;
- ✓ tashqi iqtisodiy faoliyat islohotlari;
- ✓ ijtimoiy sohadagi islohotlar.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy omillaridan biri bozor iqtisodiyotining huquqiy negizini yaratishdan iboratdir. Shu boisdan islohotlarning huquqiy asoslarini yaratishga alohida e'tibor berildi. Shu nuqtai nazardan dastlabki vaqtning o'zida iqtisodiy munosabatlarning huquqiy negizini barpo etadigan 100 ortiq asosiy qonun hujjatlari qabul qilingan. Bu qonunlarni mazmun-mohiyati jihatidan quyidagi yo'nalishga bo'lish mumkin:

1. O'zbekistonning davlat va uning iqtisodiy mustaqilligining huquqiy negizlarini yaratish, davlatni boshqaruv qoidalarini tartibga soluvchi qonunlar. Ana shu yo'nalishda "O'zbekistan Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari

to'g'risida", Yer osti boyliklari to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida", "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida", "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida" va boshqa qonunlar qabul qilindi.

2. Mulkchilik munosabatlari va ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantiruvchi qonunlar. Bu yo'nalish doirasida mulkchilik to'g'risida, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida, yer to'g'risida, ijara to'g'risida, davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida va boshqa qonunlar qabul qilindi.

3. Xo'jalik yuritishni tartibga soluvchi qonunlar, ya'ni xususiylashtirish, mulkchilik, tadbirkorlik, korxonalar, fermer xo'jaligi, dehqon xo'jaligi, shirkat xo'jaligi to'g'risida qonunlar qabul qilindi. Bozor infratuzilmasini yaratuvchi va uning faoliyatini tartibga solib turuvchi banklar va bank faoliyati, pul tizimi, tadbirkorlik, sug'urta, birjalar va birja faoliyati to'g'risida, qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida va boshqa qonunlar qabul qilindi. Korxonalar bilan davlat o'rtasidagi, korxonalar o'rtasidagi munosabatlarni yo'lga qo'yuvchi qonunlar, Soliq kodeksi, Bojxona kodeksi, monopolistik faoliyatni cheklash, korxonalarning bankrot bo'lishi haqida qonunlar qabul qilindi, Xo'jalik – protsessual kodeksi ishlab chiqildi, xo'jalik sudi tuzildi.

4. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatini belgilab beruvchi huquqiy normalar yaratildi. Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida qabul qilingan qonunlar, xalqaro pakt va bitimlar, ularning O'zbekiston tomonidan imzolanishi mamlakatimiz tashqi aloqalarining rivojlanishi tarixida yangi sahifa ochdi.

O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarning shakllanishi, uning yo'nalishlari, bosqichlari va xususiylatlari

O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o'tish mulkchilik shakllarining, ko'p ukladli aralash iqtisodiyot tuzilmalarining xilma-xilligiga asoslanadi. Bu raqobat bozor iqtisodiyotini harakatlantiruvchi kuch ekanligi, u ko'p sonli bozor sub'ektlarini talab qilishi bilan izohlanadi. Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to'g'risida»gi qonunida mamlakatimizda mulkchilikning quyidagi shakllari amal qilishi belgilab berildi:

1. Xususiy mulk. U o'z mol-mulkiga xususiy tarzda egalik qilish, undan

foydalanish va uni tasarruf etish huquqidan iborat.

2. Shirkat (jamoat) mulki oilaviy mulkni, mahalla mulkini, shuningdek kooperativlarning, ijara, jamoat korxonalarining mulkini, jamoat tashkilotlari va diniy tashkilotlarning, turli xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlarining, assotsiatsiyalar va yuridik shaxs hisoblangan boshqa birlashmalarning mulkini o‘z ichiga oladi.
3. O‘zbekiston Respublikasining davlat mulkiga ma‘muriy hududiy tuzilmalarning mulki (kommunal mulk) kiradi.
4. Mulkning aralash shakllari.
5. Qo‘shma korxonalar, chet el fuqarolari, tashkilotlari, davlatlarining, shu jumladan chet el yuridik shaxslarining mulki¹.

O‘zbekistonda mulkchilikning barcha shakllari teng huquqli ekanligi Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan.

Iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichi yumshoq monetar siyosatning amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi. Yagona rubl hududida turib taklifning pasayishi oqibatlarini yumshatish, ishlab chiqarish hajmlari va aholi turmush darajasining keskin pasayishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun markazlashgan va imtiyozli kreditlar yordamida ishlab chiqarishni subsidiyalashga majbur bo‘lindi. Shuningdek, milliy valyutaning oshirilgan almashuv kursini direktiv tarzda o‘rnatish, birlamchi ehtiyojdagi asosiy tovarlarga narxni markazlashgan holda belgilash va ularni kartochka tizimi yordamida taqsimlash orqali iste‘mol ham subsidiyalandi. Mamlakatning tashqi savdo siyosati ichki bozorni tovarlar bilan to‘ldirish hamda inflyatsiyani pasaytirish muammosining hal qilinishini ko‘zlar edi. Xususan, bu davrda import siyosati notarif cheklov-larining mavjud emasligi hamda import tariflarining yuqori bo‘lmagan (boj-xona qiymatining 5-10 foiz) darajasi bilan tavsiflanadi.

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, tashqi savdoni uzoq xorijiy mamlakatlar bozorlariga yo‘naltirish va shok terapiyasidan voz kechish natijasida dastlabki bosqichda iqtisodiy pasayish nisbatan katta bo‘lmadi. 1993-1994 yillarda O‘zbekistonning real yalpi ichki

¹Qarang: O‘zbekistonning yangi qonunlari: Mulkchilik to‘g‘risidagi qonun. 1-son. – T.: Adolat, 1991.

mahsuloti 1991 yilga taqqoslaganda 17,7 foizga pasayib, bu ko'rsatkich sobiq ittifoqning boshqa respublikalariga qaraganda ancha past edi.

Mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tgan mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda investitsiya faoliyati alohida ahamiyatga ega.

Samarali investitsiya siyosatini amalga oshirish maqsadi tomon harakat iqtisodiy rivojlanishning turli bosqichlaridagi ustuvor yo'nalishlar va maqsadga erishish mexanizmlarini o'zgartirib bordi.

Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichi (1991-1995 yillar) YaIM hajmining kamayib ketishi, milliy valyuta devalvatsiyasi va inflyatsiya sur'atlarining o'sib borishi, rivojlanishda yuqori darajada beqarorlik bilan ajralib turdi. Investitsiya hajmi va ko'lami qisqarib ketdi. Bunday holatda xorijiy investitsiyalar ulushining katta qismi turli grantlardan iborat bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar deyarli mavjud emas edi.

Respublika budjet mablag'larining investitsiya qilingan asosiy qismi (95 foiz) davlat sektoriga, iqtisodiyotning ustuvor rivojlanish sohalariga, strategik muhim ob'ektlarni qurishga yo'naltirildi. Shuningdek, respublika budjeti xarajatlar qismida salmoqli qismi (57,3 foizgacha) kadrlar tayyorlash, qishloq infratuzilmasini rivojlantirish, qishloq aholisini toza ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash kabi davlat dasturlariga ajratildi. Davlat nazorati ostida iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim tarmoqlar moliyalashtirildi.

Eksport hajmining qisqarishi yalpi jamg'armaning qisqarishiga olib keldi. O'sha yillarda mavjud jamg'arma va ularni investitsiyalarga transformatsiyasi samarali amalga oshirilmadi. Natijada asosiy kapitalni ko'paytirish va samaradorlikni oshirishga asoslangan iqtisodiy o'sish sekinlashdi.

Iqtisodiyotni, shu jumladan, narx tashkil etishni erkinlashtirish, davlat mulkini xususiylashtirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va iqtisodiyotga davlat aralashuvini cheklash islohotlarning asosiy yo'nalishlari sifatida amalga oshirildi. Mustaqil taraqqiyot davrining dastlabki pallasidagi investitsiya jarayonlarida

quyidagi masalalar hal etildi:

- amalga oshirilayotgan investitsiya hajmlarining qisqarib ketishiga barham berish va barqarorlashtirish;
- investitsiya jarayonlarini davlat budjet orqali moliyalashtirishni qisqartirish;
- davlat kafolati ostida xorijiy investitsiyalarni jalb etish;
- investitsiya jarayonlariga mamlakat aholisi va tijorat banklarini keng jalb etish.

Davlat investitsiya siyosatining 1991-1995 yillardagi muhim jihatlari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- kuchli moliyaviy siyosat olib borib, davlat budjeti defitsiti minimum darajaga olib kelindi;
- budjetdan moliyalashtirish o'ta muhim, davlat uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan birinchi darajali ehtiyojlarga nisbatan qo'llanildi;
- iqtisodiyot tarmoqlarini, yirik korxonalarini rivojlantirish maqsadida budjetdan beg'araz yordam berish amaliyotidan voz kechildi, buning o'rniga investitsiya kreditlaridan keng foydalanildi;
- O'zbekiston iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlari jahon bozorida milliy mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlash va malakatning eksport salohiyatini oshirish maqsadida har tomonlama qo'llab-quvvatlandi;
- markazlashtirilgan investitsiyalar boshqa ishlab chiqarish rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadigan, mahalliy yetkazib beruvchi va iste'molchilarni qo'llab-quvvatlaydigan ustuvor investitsiya loyihalarga yo'naltirildi.

Iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichi (1996-2003 yillar)da investitsiya siyosatining maqsadi va ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish maqsadida nobudjet manbalar orqali xususiy sektorga investitsiyalar amalga oshirildi;
- chet el investitsiyalarini jalb etish va mahalliy investorlar faoliyatini kengaytirish maqsadida qulay investitsion muhit yaratildi;
- inson kapitaliga, xususan, ta'lim tizimiga qilinadigan investitsiya miqdori ko'paydi.

O'zbekiston Respublikasi qator davlatlar va xorijiy shaxslar o'rtasida

investitsiya bahslarini hal etish tartibi to'g'risidagi Vashington konvensiyasiga, investitsiyalar kafolati bo'yicha Seul konvensiyasiga qo'shildi, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon bankiga a'zo bo'ldi, Jahon savdo tashkilotiga kuzatuvchi sifatida qabul qilindi. Bir qancha hukumatlararo investitsiyalarni himoya qilish va rag'batlantirish, ikkiyoqlama soliq solmaslik kabi kelishuvlarni imzoladi.

1996 yildan boshlab korxonalar va tashkilotlar investitsiya faoliyatini jadallashtirish uchun iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish uchun har yili Investitsiya dasturi ishlab chiqiladi va qabul qilinadi.

Iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichida quyidagilar investitsiya siyosatining asosiy natijalari bo'ldi:

- Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida birinchi bo'lib Asaka shahrida avtomobil zavodi qurildi;
- Nukus, Ellikqal'a, Samarqand va Namanganda yirik to'qimachilik majmualari foydalanishga topshirildi;
- Navoiy-Uchquduq-Sultonuzdog'-Nukus va G'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on yangi temir yo'l liniyalari qurildi;
- Toshkent-Andijon avtomobil yo'lining Qamchiq dovonidan o'tadigan qismi rekonstruksiya qilindi;

Bu davrda zamonaviy «O'zDEUavto» zavodining ishga tushirilishi bilan avtomobilsozlik sanoati tashkil etildi, bu esa iqtisodiyotni tarkibiy qayta o'zgartirilishining asosiy yakuni bo'ldi. «SamKochavto» (avtobuslar ishlab chiqarish), «Kabul-O'zbekKo» (paxta tolasini qayta ishlash), «O'zSamsung Elektroniks» (maishiy elektron apparatura), «Nestle O'zbekiston» (ozuq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar), «Oltin Deri», «Shark-teks», «Supertekstil» to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yangi qo'shma korxonalar ishga tushirildi.

Iqtisodiy islohotlarning uchinchi bosqichi (2004-2011 yillar)da YaIM barqaror sur'atlarda o'sdi va 7 foizdan ortiqni tashkil etdi. Asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar 2006 yildan boshlab ortib bordi va 2008 yilga kelib

deyarli 30 foizga oshdi².

2005 yilga kelib yangi iqtisodiy holat respublika investitsiya faoliyatida yangi vazifalarni qo‘ydi. Ular quyidagi vazifalarni yechishga qaratilgan edi:

- to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalari ulushini oshirish;
- yirik investitsiya loyihalarini o‘zlashtirishni ta‘minlash va ularni amalga oshirishni ta‘minlaydigan yirik iqtisodiy agentlarni tashkil etish;
- yuqori qo‘shilgan qiymatni ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga investitsiyalarni jalb qilishni ko‘paytirish yuzasidan sharoitlar yaratish;
- investitsiya dasturini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish;
- sog‘liqni saqlash hamda boshlang‘ich va o‘rta ta‘lim sohalarida yirik investitsiya loyihalarini o‘zlashtirish;
- investitsiya faoliyatining rivojlanishida qimmatli qog‘ozlar bozori rolini kuchaytirish;
- transaksion xarajatlarni kamaytirish;
- valyuta mablag‘larini konvertatsiya qilish mexanizmini yanada liberallashtirish.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» (11.04.2005), «To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» (21.07.2005), «O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida» (02.05.2006), «Navoiy viloyatida erkin iqtisodiy-industrial hududni tashkil etish to‘g‘risida» (02.12.2008), «Kichik biznes va xususiy tadbir-korlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» (24.08.2011), «To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» (10.04.2012), «Angren maxsus industrial hududini tashkil etish to‘g‘risida» (13.04.2012) farmonlari va bir qancha qarorlar qabul qilindi.

Iqtisodiy islohotlarning uchinchi bosqichi 2008 yilda boshlangan jahon

²O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasining 2005-2011 yillar ma‘lumotlari asosida hisoblangan.

moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoiti va ta'sirida amalga oshirildi. Mazkur inqirozning O'zbekiston iqtisodiyotiga salbiy ta'sirini oldini olish maqsadida 2009-2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi o'z natijasini berdi.

Islohotlarning uchinchi bosqichida o'zlashtirilayotgan investitsiyalar hajmi o'sishida quyidagi omillar asosiy ahamiyatga ega bo'ldi:

- soliq yukining pasaytirilishi;
- korxonalarni xomashyo resurslaridan foydalanish imkoniyatlarining kengaytirilishi;
- chet el investitsiyalarining hudud va tarmoq yo'nalishlariga ko'ra taqdim etilayotgan soliq va imtiyozlar rolining oshirilishi;
- hudud va tarmoq investitsiya dasturlarining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi.

Investitsiyalar hajmi 2011 yili 2003 yilga nisbatan 3,1 barobarga ortdi. Bunda budjetdan tashqari jamg'armalar investitsiyalari 54,6 barobar ko'paydi. Bu, birinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni bilan bog'liq bo'ldi.

Jamg'armaning asosiy vazifasi qilib iqtisodiyotning yetakchi, tarmoqlarini modernizatsiyalash va texnikaviy qayta qurollantirish bilan bog'liq loyihalarning amalga oshirilishini ta'minlash, mamlakatni muttasil, barqaror va mutanosib ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishish, shuningdek, samarali tarkibiy va investitsiyaviy siyosatni amalga oshirish deb belgilandi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida investitsiyalarning barqaror o'sishi O'zbekiston iqtisodiyotining barqarorligi, tashqi inqirozlar ta'sirini minimallashtirish imkoniyatiga nisbatan xorijiy investor-larning ishonchi yuqoriligidan dalolat beradi. Chunonchi, to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari 2011 yili 2003 yilga nisbatan 8 barobarga ko'paydi.

Islohotlarning uchinchi bosqichida bir qator yirik investitsiya loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Jumladan, Sho'rtan gaz-kimyoy majmuasi ishga

tushirildi, Navoiy shahridagi aeroport rekonstruksiyasi yakunlandi, «Toshg‘uzor-Boysun-Qumqo‘rg‘on» temir yo‘li ishga tushirildi, Olmaliq tog‘-kon metallurgiya kombinati rekonstruksiya qilindi, Rezaksoy suv ombori qurilishi tugatildi.

Investitsiyalarning iqtisodiyot sohalari bo‘yicha tarkibi o‘zgardi. 2003 yilga nisbatan solishtirganda, investitsiyalar mashinasozlikda 12,2 barobar, qurilish materillari ishlab chiqarishda 10,2 barobar, yoqilg‘i-energetika maj-muida 5,4 barobar, oziq-ovqat sanoatida 4,2 barobarga ortdi. Shuningdek, bu davrda investitsiya siyosatida hal etilishi lozim bo‘lgan qator masalalar, jumladan, ichki manbalar, xususan aholi jamg‘armalari orqali investitsiya jarayonlarini faollashtirish, yuqori qo‘shilgan qiymat mahsulotlari, ayniqsa, yuqori texnologik mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlariga investitsiya-larni amalga oshirish, melioratsiya va drenaj ishlariga mablag‘lar jalb etish, ikkilamchi qimmatlar qog‘ozi bozorini tashkil etish, innovatsiyalarni yaratishga investitsiya resurslarini jalb etish kabilarga alohida e‘tibor qaratildi.

Xalqaro kuzatuvchilar O‘zbekistonning investitsion faolligi va rivojlanish yo‘li to‘g‘ri ekanini e‘tirof etdilar. Islohotlarni amalga oshirish qiyinchiliklari va har bir bosqichning o‘ziga xosligiga qaramasdan, O‘zbekiston MDH davlatlari orasida yaxshi ko‘rsatkichlarga erishdi. Mamlaka-timizda investitsiya hajmi bo‘yicha boshqa MDH davlatlari kabi keskin pasa-yishlar ro‘y bermadi va MDH davlatlari ichida 1995 yildan beri investitsiya hajmi indeksi salbiy miqdorni ko‘rsatmagan yagona davlat sanaladi³.

Mustaqillikka erishish arafasida va mustaqil taraqqiyotning dastlabki pallasida iqtisodiyotimizda jiddiy tarkibiy deformatsiyalar mavjud bo‘lib, ular orasida sanoatning haddan ortiq tarzda xom ashyoga yo‘naltirilgani ajralib turardi.

O‘zbekiston oldida ishlab chiqarishning iqtisodiy tarkibini tubdan qayta qurish, xom ashyo va qayta ishlovchi sohalarda o‘rtasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish, jahon xo‘jaligiga kirib borishga qodir bo‘lgan diversifika-siyalangan sanoat kompleksini shakllantirish muammolari paydo bo‘ldi. Tarkibiy o‘zgartirishlarning ustuvor vazifasi - sanoatning va alohida import o‘rnini bosuvchi

³O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2004-2011 yillar ma‘lumotlari asosida hisoblangan.

ishlab chiqarishning strategik jihatdan muhim bazaviy soha-larini qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish edi. Hukumat tomonidan joriy jarayonning voqeliklarini ob'ektiv jihatdan hisobga olishga asoslangan va o'tish davridagi yo'qotish-larning minimal darajasini ta'minlaydigan chora-tadbirlar ishlab chiqarildi va amalga oshirildi.

Shuni ta'kidlash kerakki, iqtisodiyotning asosiy sohalari bo'lgan ener-getika, neft va gaz sanoati, oltin qazib olish va kimyo sanoatini, qora va rangli metallurgiya korxonalarini qatorida qayta ishlash sanoati sohalari jadal sur'atlar bilan rivojlantirish, qurilish materiallarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish asosida mamlakatning asosiy tabiiy va mineral xom ashyo resurslarini ko'proq ishlab chiqarishga jalb qilish ustuvor vazifa hisoblanadi. 1999 yildan boshlab iqtisodiyotning real sektorida mulkchilikning yangi shakliga o'tish bo'yicha choralar amalga oshirildi. Buning uchun iqtisodiyotning asosiy sohalari bo'lgan yoqilg'i-energetika majmuasi, metallurgiya sanoatining yirik korxonalarini xususiy lashtirildi. Iqtisodiyotning asosiy sohalari-dagi yirik investitsion loyihalarining ro'yobga chiqarilishi va yangi qayta ishlovchi korxonalarining faol jalb qilinishi iqtisodiyotdagi o'sish darajasini bir me'yorda oshishiga turtki bo'ldi. Sanoat mahsulotlari eksportining oshishi hisobiga ijobiy to'lov balansi shakllandi, va oltin zaxiralari oshdi. Valyuta bozorining liberallashtirilishi va shuning doirasida 2000 yilga qadar davlat valyuta almashtirish kursi va valyuta operatsiyalarini qat'iy ma'muriy nazorat qilish eksport hajmining ko'payishini va chet el valyutasi kirib kelishi rag'batlantirdi⁴. Milliy valyutani devalvatsiya qilish, uning konvertatsiya bo'lishini ta'minlash orqali birja va birjadan tashqari ayirboshlash kurslarini unifikatsiya qilish masalalari hal etildi⁵.

Valyuta bozorining liberallashtirilishi bilan bir qatorda, iqtisodiyot-ning real sektoriga nisbatan pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish va bank tizimini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Valyuta siyosatining

⁴O'zbekiston Respublika Prezidentining 2000 yil 5 iyundagi PF-2613-sonli "Eksport mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoni.

⁵Amalga oshirilgan milliy valyuta devalvatsiyasi natijasida milliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlari narxlari pasaydi, ichki narx-navo strukturasi takomillashtirildi, parallel bozor tugatildi va bularning barchasi makroiqtisodiy indikatorlarda o'z aksini topdi, to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari oqimi sezilarli darajada kengaydi va hokazo.

liberallashtirilishi va mahsulot ishlab chiqaruvchilarga nisbatan soliq yig'img'larining kamayishi o'sha davrdagi o'zgarishlarning asosiy natijalaridan biri bo'ldi. Joriy eksport-import operatsiyalari bo'yicha valyu-ta konvertatsiyasining muomalaga kiritilishi xorijiy investitsiyalar jalb qi-linishi va shu asosda qo'shma koronalarning rivojlanishi dinamikasiga ijo-biy ta'sir ko'rsatdi. 1996-2003 yillarga qadar chet el investitsiyalari asosida ishlovchi korxonalar (ChEIAIK) soni 2,1 marta oshdi. Tarkibiy o'zgarishlar-ning birinchi bosqichida savdo faoliyatida chet el investitsiyasi asosida ishlov-chi savdo va vositachilik korxonalari tashkil etish loyihalariga ko'proq e'ti-bor berilgan bo'lsa, keyingi bosqichda sanoatda shu (ChEIAIK) korxonalarining ulushi oshishi kuzatildi. Hozirda respublikamizda ishlayotgan korxonalarining 55 foizdan ortig'i iqtisodiyotning ishlab chiqarish sektoriga to'g'ri keldi.

Shunday qilib, 2004-2007 yillarda tarkibiy islohotlar ko'lamini yanada chuqurlashtirish va kengaytirish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan yangilash bo'yicha strategik vazifa ilgari surildiki, ular eksportga mo'ljallangan taraqqiyotni ta'minlashi lozim edi⁶. Bunday ustuvor vazifaning amalga oshirilishi quyidagilar asosida iqtisodiyot tarkibida yanada sifatli yutuqlarga erishishni taqozo etadi:

- qo'shilgan qiymat o'sishi mexanizmini takomillashtirish, sohalar ichidagi yutuqlar unumini oshirish, tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish hisobiga yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoat ulushini oshirish;
- ishlab turgan korxonalarni modernizatsiya qilish va texnologik jihatdan yangilashga, yangi qo'shma korxonalar tashkil etishga yo'naltiriladigan to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini keng ko'lamda jalb qilish;
- mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksportini yanada rag'batlantirish, bu, o'z navbatida, eksport-import operatsiyalarini bojxona-narxlar yordamida boshqarishni takomillashtirishni, bojxona to'lovlarini unifikatsiya qilishni, soliq va bojxona boshqaruvini soddalashtirishni taqozo etdi.

Bu davrda oldingi bosqichlarda yaratilgan iqtisodiy salohiyatni yanada

⁶Karimov I. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. T.: 2005.

rivojlantirish uchun sharoit yaratish bo'yicha muntazam choralar davom ettirildi va tayyor mahsulot eksportini yanada rag'batlantirish choralari amalga oshirildi.

Xususiylashtirish joriy bosqichining o'ziga xos jihati shundaki, davlat mulkining, birinchi navbatda birja bozorlarida asosiy sohalar korxonalarining aksiyalarini sotish imkoniyatlari kengaydi, tanlovli savdolar o'tkazish va investorlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish mexanizmi joriy etildi. Natijada, bu holat aktivlarning yangi egalariga faqatgina xususiylashtiri-layotgan ob'ektning qaytarma qiymatini (korxonaning o'zini, aksiyalar paketini va hokazo) to'lash majburiyatini emas, balki uni rivojlantirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash majburiyatini ham yukladi.

2008-2011 yillarda O'zbekiston iqtisodiyoti jahonda yuz bergan moliyaviy inqiroz sharoitida rivojlandi, «iqtisodiyotimizning jahon xo'jalik va moliyaviy-iqtisodiy aloqalarga o'sib borayotgan sur'atlar bilan kirishib ketayotganligini hisobga olganda jahon inqirozi, birinchi navbatda uning oqibatlari bizga salbiy ta'sir ko'rsatdi va ko'rsatib kelmoqda. Birinchi navbatda bu ta'sir eksportga yo'naltirilgan asosiy sohalarning va ular bilan bog'liq bo'lgan o'xshash ishlab chiqarishlarning faoliyatida eksport qilinadigan mahsulotlarning muhim turlariga jahon bozorida talabning keskin kamayishi va narxlarning tushib ketishi bilan o'z aksini topmoqda. Bu esa o'z navbatida umuman iqtisodiyotning muvozanatlashuviga va samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, mo'ljallangan loyihalarni amalga oshirishda, qo'yilgan maqsadlarga erishishda muammolarni yuzaga keltirmoqda»⁷.

Global moliyaviy inqirozning salbiy ta'sirini yengib o'tish maqsadida hukumat tomonidan 2008 yildayoq Inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi va qabul qilindi.⁸

Dasturga ko'ra, birinchi navbatda, eksport qiluvchi korxonalarining barqaror ishlashini qo'llab-quvvatlash va ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi.


⁷Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. - T.: O'zbekiston, 2009.

⁸O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 8 noyabrdagi PF-4058-sonli «Iqtisodiyotning real sektorini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida» Farmoni.

Ichki talabni rag‘batlantirish bo‘yicha ham tegishli tadbirlar ishlab chiqilib, ularga ko‘ra mahalliy ishlab chiqaruvchilar salohiyatidan to‘liq foydalanish maqsadida mahalliyashtiriladigan mahsulot hajmini 3,5-4 baravar oshirish ko‘zda tutildi.


Iqtisodiyot sanoat sektorining jadal o‘shish sur‘atlari O‘zbekiston iqtisodiyotidagi tarkibiy qayta o‘zgartirishlar ijobiy dinamikasini ta‘minladi. Umuman olganda, 1995-2011 yillarda sanoatning YaIM tarkibidagi ulushi 17,1 foizdan 24 foizgacha o‘ydi (1-rasm.)

1-rasm. 1995-2011 yillarda YaIM tarkibidagi o‘zgarishlar dinamikasi (foiz hisobida)



Iqtisodiyotdagi tarkibiy qayta o‘zgartirishlarning samaradorligi eksport tarkibida erishilgan ijobiy siljishlar bilan belgilangan. 1995-2011 yillarda xom ashyo eksportining ulushi sezilarli darajada, jumladan paxta tolasi 48,4 foizdan 9 foizgacha kamaydi. Tayyor mahsulotlar ulushi umuman olganda 7,1 foizdan 34,6 foizgacha oshdi, shu jumladan mashinalar va asbob-uskunalarning ulushi 2 foizdan 6,7 foizgacha, to‘qimachilik mahsulotlari 3,1 foizdan 9,7 foizgacha, oziq-ovqat mahsulotlari 1,7 foizdan 13,2 foizgacha oshdi (2-rasm.)

2-rasm. 1995-2011 yillarda O‘zbekiston eksporti tarkibidagi o‘zgarishlar dinamikasi.



Shu yillarda iqtisodiyotning sanoat tarmogʻida nodavlat sektorining roli keskin ravishda oʻzgardi. Nodavlat korxonalarining sanoat subʻektlarining umumiy sonidagi ulushi 1991 yildagi 17 foizdan 87 foizgacha oshdi, ulardan 30 foizi xususiy korxonalaridir. Hozirgi paytga kelib, nodavlat korxonalarida sanoat ishlab chiqarish xodimlarining 80 foizdan ortigʻi jamlangan boʻlib, bu yerda sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 70 foizdan ortigʻi ular tomonidan shakllanadi.

Iqtisodiy islohotlarning besh tamoyilining amal oshirilish mexanizmi

Oʻzbekistonning oʻz yangilanish va tarakqiyot yoʻliga asos qilib olingan yetakchi tamoyillaridan biri kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdir. Bunda har qanday iqtisodiy islohotning natijasi halq manfaatlarini va uning ijtimoiy himoyasini taʼminlanishga qaratilgan.

Mustaqillikkacha boʻlgan davrda, hususan, sobiq ittifoqning mustabid siyosati natijasida 1980-yillarning ikkinchi yarmiga kelib, Oʻzbekiston Respublikasi davlat budjeti defitsiti hamda inflyatsiya darajasining ortib borishi, xalq isteʼmoli tovarlarining yetishmasligi, ishlab chiqarish va mehnat samaradiligining tushib ketishi kabi bir qator salbiy tendensiyalar iqtisodiy-siyosiy vaziyatning keskinlashuviga olib keldi.

Ushbu davrda respublika aholisining oʻsish surʼatlari sobiq ittifoqning boshqa davlatlariga nisbatan 3 barobar yuqori boʻlishi hamda unda bolalar ulushining yuqoriligi demografik vaziyatning murakkabligidan dalolat berardi. Shu bilan birga, uzoq yillar davomida mutanosib surʼatlarda ish joylari va yashash sharoitlari

yaratilmaganligi oqibatida ishsizlik darajasining o'sishi, ishlab chiqarish samaradorligining tushib ketishi, aholi daromadlarining kamayishiga olib keldi. Bularning umumiy mahsuli esa aholi farovonligi darajasining tushib ketishiga sabab bo'ldi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ushbu davrda mamlakat aholisining 45 foiz daromadlari yashash minimumidan past darajada bo'lgan (daromadlar aholi jon boshiga nisbatan 75 rubldan to'g'ri kelgan. 1990 yilda yashash minimumi 85 rublni tashkil etgan). Bu ko'rsatkich ittifoq aholisi bo'yicha 11 foizni tashkil etishini hisobga olganda, undagi har to'rtinchi kishi O'zbekiston fuqarosiga to'g'ri kelishi ma'lum bo'ladi.

Bu davrda respublika aholisining ijtimoiy holati, ijtimoiy ta'minoti va ijtimoiy himoyasi masalalari umuman qoniqarsiz xolatda bo'lib, bunda qishloq aholisining 5 foizigina vodoprovod va kanalizatsiya bilan, taxminan 50 foizi ichimlik suvi bilan, 17 foizi tabiiy gaz bilan ta'minlangan bo'lib, uy-joy, sog'likni saqlash, maktablar, bolalar bog'chalari, madaniyat ob'ektlari bilan yetarli darajada ta'minlanmagan edi.

Mana keskin sharoitda O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi.

Tub o'zgarishlarning *boshlang'ich bosqichi 1991 - 1995 yillarda* asosiy oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mollarni iste'mol qilish keskin kamayishi, ommaviy ishsizlik paydo bo'lishining oldini olish, aholi turmush darajasining keskin tushib ketishiga yo'l qo'ymaslik, ijtimoiy sohalar - sog'liqni saqlash, ta'lim, fan va madaniyat tarmoqlari doimiy ishlashini ta'minlashga muvaffaq bo'lindi.

Islohotlarning bu bosqichida O'zbekiston ijtimoiy himoya siyosati-ning asosiy vazifasi – imkonqadar yalpi ishsizlikka yo'l qo'ymaslik hamda narxlarning erkinlashtirilishi natijasida aholi daromadlaridagi "yo'qotishlar"ni kamaytirish bo'ldi.

Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, milliy va demografik xususiyatlarini hisobga olgan holda, iste'mol bozorlari himoyasi va davlatning iste'mol xavfsizligiga asos solindi. Asosiy oziq-ovqat va iste'mol mollarining keskin kamayib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun chegaralangan mahsulotlarning normalashtirilgan tizimi ishlab chiqildi. Shuningdek, himoya chorasi sifatida iste'molchilarga subsidiyalar berish

tizimi va iste'mol bozoridagi asosiy oziq-ovqat tovarlarini mamlakatdan tashqariga chiqib ketishidan himoyalash-ning turli shakllaridan keng foydalanildi. Narxlarini erkinlashtirish sharoitida aholining xarid qobiliyatini himoya qilish uchun bu choralar muhim ahamiyat kasb etdi.

Hukumat tomonidan qishloq aholisiga hususiy tomorqalarning ajratilishi, shuningdek, aholi asosiy qismining real maoshi kamayishini kompensatsiya qilish maqsadida tadbirkorlik faoliyati qo'llab-quvvatlandi. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, bu yillar ichida qishloq aholisi xususiy tasarrufidagi yer hajmi ikki barobarga oshdi, natijada, har bir oila tasarrufidagi tomorqalar 1990 yildagi 12 sotixdan 30 sotixga yetdi. Bu chora-tadbirlar bozor tipidagi yuqori samarali tomorqa xo'jaliklarini tashkil etish imkonini yaratdi.

Bozor iqtisodiyoti tizimida ishlashga moslashmagan ta'lim hamda sog'likni saqlash tizimi ham islohotlarning dastlabki bosqichida tub o'zgarishlarni talab qilardi. Bunda aholining sog'lig'i va ta'lim darajasini bir butun tizim sifatida saqlab qolishga qaratilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etdi.

*Bu siyosat o'tish davrining eng murakkab – boshlang'ich davrlarida ijtimoiy sohadagi asosiy maqsad va vazifalarni amalga oshirishga ko'mak berdi. Shunday yondashuv tufayli islohotlar arafasida eng noqulay boshlang'ich shart-sharoitlarga va sezilarli ijtimoiy ziddiyatlarga ega bo'lgan O'zbekiston ijtimoiy mojarolarni chetlab o'tishga muvaffaq bo'ldi.*⁹

Bu davr ichida O'zbekiston Respublikasi aholisining ijtimoiy ta'minoti hamda himoyasining huquqiy asoslari yaratildi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida" (20.11.1991), "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida" (13.01.1992), «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida» (02.07.1992), "Ta'lim to'g'risida"(02.07.1992), "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida" (06.05.1993), "Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida" (07.05.1993), "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida" (03.09.1993) kabi bir qator ijtimoiy muhim qonunlar qabul qilindi.

⁹ Uzbekistan: desyat let po puti formirovaniya rinochnoy ekonomiki", RAN, 2001

Ikkinchi bosqichda (1996 - 2003 yillar) makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash, inflyatsiya darajasini pasaytirish, iqtisodiyotda tuzilmaviy o'zgartirishlar, iste'mol bozorini to'yintirish orqali aholi turmush darajasini tadrijiy ko'tarish uchun shart-sharoitlar yaratildi. 1996 yildan boshlangan iqtisodiy o'sish aholi daromadlari o'sishining tabiiy manbaiga aylandi. 1997-2003 yillarda aholining real pul daromadlari yillik o'rtacha 22 foizdan o'sdi.

Ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari aholining umumiy ijtimoiy himoyasi o'rniga ijtimoiy himoyaning manzilli shakllariga almashindi. Ish bilan ta'minlash, aholi daromadlarini oshirish, inson kapitali salohiyatini oshirish ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlariga aylandi.

Narxlar o'sishi munosabati bilan *maoshlarni indeksatsiyalash* soni keskin kamaydi. Indeksatsiya faqatgina budjet tashkilotlari sohasida qo'l-lana boshlandi. Iste'mol subsidiyalari kommunal xizmatlarning ayrim turlarigagina saqlab qolindi. Aholi daromadlari tarkibida transfertlar ulushi kamaydi. Davlat aholi o'rtasida tengsizlik kuchayishining xavfini kamaytirish maqsadida, faqatgina, uning *daromadlari darajasini* boshqarib turdi.

Qishloq aholisi turmush darajasini yaxshilash maqsadida qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash dasturi ishlab chiqildi. Natijada aholining, ayniqsa, qishloq joylarda yashovchilarning, ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlanganlik darajasi oshdi. 1997-2003 yillarda aholining ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi 36,8 dan 47 foizga, xususan, qishloq joylarda 36,8 dan 47 foizga, tabiiy gaz 69 foizdan 78,3 foizga yetdi.

1997 yildan boshlab ijtimoiy sohaning barcha tarmoqlarida ijtimoiy dasturlar tizimi amalga oshirila boshlandi. Ta'lim sohasida bu kadrlar tayyorlash milliy dasturi bo'lib, maktablar, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari qurildi, kapital ta'mirlandi. O'quv binolari zamonaviy jihoz-lar, o'quv qurollari, kompyuter sinflari bilan ta'minlandi. Yangi milliy ta'lim standartlari, darsliklar ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi. Bu tadbirlarning amalga oshirilishi uchun har yili davlat budjetining ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan qismining deyarli yarmi sarf bo'ldi.

Bu davrda sog'likni saqlashni isloh qilish Davlat dasturi katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ldi, ushbu dastur asosida tibbiy xizmat ko'rsatish tizimi qayta ko'rib chiqildi, qishloq joylarda sog'likni saqlashning birlamchi bo'g'ini isloh qilindi, onalik va bolalikni himoya qilish tizimi yaxshilandi.

Ushbu davrda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida yillik davlat dasturlari amalga oshirildi. Bular qatorida "Inson manfaatlar yili" (1997), "Oila yili" (1998), "Ayollar yili" (1999), "Sog'lom avlod yili" (2000), "Ona va bola yili" (2001), "Qariya-larni qadrlash yili" (2002), "Obod mahalla yili" (2003) yillik davlat dasturlari ijtimoiy siyosatning yanada kuchayishida alohida o'rin tutdi.

Uchinchi bosqichda 2004 yildan boshlab bugungi kunga qadar iqtisodiyotda, bank tizimi, soliq-budjet siyosatida o'tkazilgan institutsional va tuzilmaviy islohotlar natijasida kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, yangi ish joylarini yaratish hamda aholi daromadlari o'sishiga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada, so'ngi sakkiz yil ichida aholi daromadlarining real o'sishi 20 foizni tashkil etdi. Ushbu bosqichda mamlakatimiz rivojlanishida 2008 yildan boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davri alohida o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasida 2009 yili qabul qilingan inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturi doirasida bir qator investitsion dasturlar amalga oshirilib, aholi bandligi va daromadlarining o'sishiga, ijtimoiy infrastruktura va xizmatlar sohasining rivojlanishiga, aholining o'z-o'zini boshqarish organlari orqali manzilli ijtimoiy himoya qilish masalalariga alohida e'tibor berildi. Bu bosqichda eng asosiy e'tibor ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida barchaga teng imkoniyatlar yaratish, mazkur xizmatlarning sifatini oshirish hamda yoshlarning mehnat bozorida faol ishtirokini ta'minlashga qaratildi.

Shuningdek, ta'lim tizimidagi islohotlar bir qator ixtisoslashtirilgan dasturlar va qarorlar asosida yanada takomillashtirildi. Hususan, "2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi", "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi pedagog va muhandis-pedagog kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturi", "2005-2009 yillarda

umumta'lim maktablari uchun darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarni nashr etish dasturi", "Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi", "2011-2016 yillarda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini modernizatsiya qilish va mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash dasturi", shuningdek, "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim hamda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni hamda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori ta'lim sohasida tub o'zgarishlarga sabab bo'ldi.

Sog'liqni saqlash tizimini yanada isloh qilish hamda aholi salomat-ligini oshirish maqsadida bir qator hukumat qarorlari va davlat dasturi-ning amalga oshirilishi natijasida tashxis qo'yish va tibbiy yordamning barcha turlari sifatini tubdan ko'tarish hamda sohani profilaktik meditsi-naga o'zgartirish bo'yicha keng ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Res-publikasi birinchi Prezidentining "Sog'liqni saqlash tizimini isloh qi-lishni yanada chuqurlashtirish va uni rivojlantirish davlat dasturini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida»gi Farmoni (19.09.2007y.), VMning "Sog'liqni saqlash muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash to'g'risida»gi qarori (24.03.2011y.), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'ri-sida»gi (28.11.2011y.) hamda "Ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasini Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi etib qayta tashkil qilish to'g'risida» gi (21.11.2011) qarori tizimni isloh qilishda dasturamal bo'ldi.

– Ijtimoiy siyosatning keyingi davrdagi ustuvor yo'nalishlari: tadbirkorlikning rivojlanishi uchun qulay makroiqtisodiy muhit yaratilishi, iqtisodiyotning yuqori texnologiyali sohalarida yuqori daromadli ish joylari tashkil

etish, aholining oʻrta tabaqasi shakllanishini kengaytirish;

- ijtimoiy himoya tizimining manzilliligi va samaradorligini kuchaytirish;
- taʼlim va tibbiyot xizmatlari sifatini oshirish, mehnat bozori muvozanatlashuvini taʼminlash maqsadida yuqori malakali kadrlar tayyorlash;

xizmatlar sohasi infratuzilmasini yanada rivojlantirish va aholining yashash standartlarini rivojlangan davlatlar darajasiga koʻtarish kabi bir qator ustuvor vazifalarni oʻz ichiga oladi.

Nazorat savollari:

1. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi”da davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish masalalari
2. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi”da davlat hokimiyatining uchta sub’ekti-davlat boshligʻi boʻlgan Prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar oʻrtasidagi vakolatlar
3. «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga karatilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirish masalalari
4. Oʻzbekistonda Parlament tizimidagi islohotlar va Oliy Majlis palatalari faoliyatining huquqiy asoslarining yaratilishi.
5. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida Oʻzbekiston iqtisodiyotiga salbiy taʼsirini oldini olish maqsadida 2009-2012 yillarga moʻljallangan Inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi oʻz natijalari.
6. «Mulkchilik toʻgʻrisida»gi qonunga koʻra mamlakatda mulkchilikning shakllari.
7. Iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichida amalga oshirilgan investitsiya siyosati
8. Oʻtish davrining oʻziga xos xususiyatlari.
9. Iqtisodiy islohotlarning bosqichlari va belgilangan vazifalar

10.O‘zbekistonda makroiqtisodiy barqrorlikni rivojlantirish yo‘lidagi chora – talbirlar

11.O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi sohasida islohotlar va fermer xo‘jaliklarining tuzilishi

12.O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlariga o‘tishning huquqiy asoslarini yaratilishi

O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy sohani tartibga solish borasidagi islohotlar bosqichlari.

3 – mavzu: 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi.

Reja:

1. Jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish va isloh qilish.
2. Davlat dasturlari va hududiy dasturlar doirasida aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarning belgilanishi.

Tayanch so‘zlar: media-haftalik, xalqaro davra suhbatlari, buyuk tarixiy meros, O‘zbekistonning boy tabiiy zahiralari, Markaziy Osiyoda yadro qurolidan ozod hudud, preventiv diplomatiya.

Jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish va isloh qilish.

Mustaqillik yillarida mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurishga, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalq osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, xalqaro maydonda O‘zbekistonning munosib o‘rin egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Bosib o‘tilgan yo‘l va orttirilgan tajribani xolisona baholashdan,

mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarni tahlil qilishdan hamda zamon talablaridan kelib chiqqan holda, oldimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishning muhim ustuvorliklarini hamda aniq marralarini belgilash vazifasi turgan edi.

Mazkur vazifani amalga oshirish yoʻlida aholining keng qatlamlari, jamoatchilik va ishbilarmon doiralar vakillari, davlat organlarining rahbarlari va mutaxassislari bilan amaliy suhbat hamda muhokamalar olib borildi, shuningdek amaldagi qonun hujjatlari, milliy va xalqaro tashkilotlarning axborot-tahliliy materiallari, maʼruzalari, tavsiyalari va sharhlari oʻrganildi, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilindi.

Kelib tushgan takliflarni jamlash, chuqur oʻrganish hamda umumlashtirish asosida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida»gi Farmoni loyihasi ishlab chiqilib, u bilan:

2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi (keyingi oʻrinlarda-Harakatlar strategiyasi);

Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi (keyingi oʻrinlarda-Davlat dasturi) tasdiqlandi.

Loyihalarni tayyorlash davomida aholining keng qatlamlari orasida qizgʻin muhokamalar olib borildi. Loyihalar muhokama uchun turli axborot maydonlariga joylashtirildi, ularning natijasida koʻplab taklif va mulohazalar kelib tushdi. Fuqarolar siyosiy-huquqiy borada yuksak faollik koʻrsatib, olib borilayotgan islohotlarga alohida qiziqish va daxldorlikni namoyon qildilar.

Xususan, loyihalarning «Qonun hujjatlari taʼsirini baholash tizimi» portalida yoʻlga qoʻyilgan jamoatchilik muhokamasi natijalari boʻyicha 1 310 ta taklif va mulohaza kelib tushib, ular asosida Davlat dasturining 41 ta bandi

qayta ko‘rib chiqildi.

Shu bilan birga, 2017 yil 23 — 27 yanvar kunlari Toshkent shahrida media-haftalik va xalqaro davra suhbatlari tashkil etilib, ularda 1 300 dan ortiq mutaxassis va ekspert, jamoatchilikning, ommaviy axborot vositalarining, diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlarning, shuningdek O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan yirik xorijiy investorlarning vakillari ishtirok etishdi.

Harakatlar strategiyasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan saylovoldi jarayoni, jamoatchilik, ishbilarmon doiralari vakillari hamda davlat organlari bilan uchrashuvlar chog‘ida bildirilgan mamlakatni ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy-gumanitar rivojlantirishning konseptual masalalari kiritildi.

Harakatlar strategiyasining maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta‘minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir.

Xususan, mamlakatni rivojlantirishning quyidagi 5 ta ustuvor yo‘nalishi belgilangan:

- 1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;**
- 2. Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;**
- 3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;**
- 4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;**
- 5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.**

Mazkur yo‘nalishlarning har biri mamlakatdagi islohotlarni va yangilanishlarni yanada chuqurlashtirishga oid aniq bo‘limlardan iborat.

Harakatlar strategiyasini besh bosqichda amalga oshirish nazarda tutilmoqda, bunda yillarga beriladigan nomlarga muvofiq har yili uni amalga oshirish bo'yicha Davlat dasturi tasdiqlanadi.

Mustaqillik davrida mamlakatimiz va jahon hamjamiyati o'rtasidagi munosabatlar mazmunan butkul yangicha sifat darajasiga ko'tarildi. Dunyo haritasida yangi suveren davlat-O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi. Milliy istiqlolni qo'lga kiritgan O'zbekiston jahon arenasida o'z ovozigga ega bo'lgan xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub'ekti sifatida qad rostladi.

Ammo O'zbekiston mustaqilligining qaror topish davri XX asrning 1990-yillarida mamlakat ichkarisida va xalqaro miqyosda vujudga kelgan o'ta murakkab tarixiy jarayonlar silsilasiga to'g'ri keldi. Qolaversa, 1991 yilda O'zbekiston o'z mustaqilligini endigina qo'lga kiritgan, o'sha paytda dunyo hamjamiyatida va mamlakatda vujudga kelgan og'ir va o'ta qaltis shart-sharoitlarda mustaqil taraqqiyot yo'lida birinchi qadamlarni tashlayotgan yosh davlat edi. Bu yillarda Mustaqil O'zbekiston oldida butkul yangi bo'lgan o'ta murakkab sinov – *birinchidan*, mamlakat ichkarisida boshlab yuborilgan chuqur islohotlar, o'ta ma'suliyatli yangilanish jarayonlari uchun imkon qadar qulay bo'lgan tashqi sharoitlarni yaratish; *ikkinchidan*, xalq tinchligi, mamlakat xavfsizligi va iqtisodiyot barqarorligini tashqi tahdidlardan himoya qilish; *uchinchidan*, qarama-qarshiliklarga boy bo'lgan hamda turli tahlikali vaziyatlarni boshidan kechirayotgan jaxon hamjamiyatiga xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari asosida qo'shilish; va *to'rtinchidan*, kuchli xalqaro raqobatga bardosh berib, unda munosib o'rin egallash kabi qator vazifalar turardi. Mamlakat mustaqilligini saqlab qolishda va mustahkamlashda ana shunday mashaqqatli vazifani qanchalik muvafaqiyatli ado etishga bog'liq edi.

Tabiiyki, O'zbekistonning boy tabiiy zahiralari, muhim geografik joylashuvi, buyuk tarixiy merosi, bag'rikeng, tanti hamda zahmatkash xalqi va mamlakatning boshqa qator o'ziga xos jihatlari ham jahon hamjamiyatida katta qiziqish uyg'otar, mamlakat atrofida uni darxol o'z "qaramog'iga" olish maqsadida unga go'yoki "yordam" qo'lini cho'zayotgan, turli tarixiy, siyosiy, iqtisodiy da'volarni

bildirib turgan davlatlar ham bor edi.

O‘zbekistonni o‘zi tanlab olgan yo‘lidan qaytarish, uning taraqqiyotini izdan chiqarish, barqarorligi, tinchligiga putur yetkazishga bo‘lgan jiddiy urinishlar 1990 yilda Namangan, Andijon va Farg‘onada millatlararo to‘qnashuvlar, diniy aqidaparastlarning Konstitutsion tizimga qarshi jinoiy harakatlarida, Qirg‘izistonning O‘sh shahrida, 1990-1996 yillarda Tojikistondagi fuqarolik urushi davomida yuz bergan millatlararo qirg‘inbotlar, 1999 yil 16 fevralda Toshkent shahrida, 1999-2001 yillari Qirg‘izistonning Botkent, O‘zbekistonning Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida terroristik tajovuzlar, 2004 yili Toshkent shahri va Buxoro viloyatida uyushtirilgan portlashlar va boshqa shu kabi mudhish voqealarda, 2010 yili yana Qirg‘iziston janubida o‘zbek va qirg‘iz millatiga mansub kishilar o‘rtasida uyushtirilgan ommaviy xunrezliklarda ochiqdan-ochiq namoyon bo‘ldi. Bu davrda qo‘shni mamlakatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy tanglik, siyosiy boshboshdoqlik, ayniqsa davlat boshqaruv organlarining eng zarur paytlarda “falajlik” holatiga tushib qolish holatlari O‘zbekistonning tinchligiga raxna soluvchi ichki va tashqi tahdidlarga maqbul sharoit yaratuvchi, ularni transmilliy kuchga aylantiruvchi omillardan biriga aylangandi. Ana shunday sharoitlarda O‘zbekistonni turli tahdidlardan asrab qolinishida, uning dunyo hamjamiyatida obro‘-e‘tibor topishida, nufuzi ortib, mavqei mustahkamlanib borishi muhim edi.

Birinchi Prezident I.Karimov o‘zining 1992 yili chop etilgan «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» nomli asarida «O‘zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan, ko‘p tomonlama faol tashqi siyosatni amalga oshirish-davlatimizning mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va g‘oyat muhim vositasidir», - deb ta’kidlagan edi.¹⁰ Mamlakat rahbari uch yuz ming yildan ortiq tarixiy davlatchilikka ega bo‘lgan o‘zbek xalqining dunyo arenasida yana qad rostlashiga erishish uchun puxta-pishiq o‘ylangan, faol va dadil, vazmin va pragmatik xarakterga ega bo‘lgan tashqi siyosat strategiyasini mustaqillikning

¹⁰Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. -T.: “O‘zbekiston”, 1992.

dastlabki davridanoq shakllantira oldi. Shu yo'sinda O'zbekiston va jahon hamjamiyati o'rtasidagi munosabatlarning barcha jabhalarini o'zida mujassam etgan yaxlit davlat siyosati amalga tadbiiq etildi. Bu siyosat asosan quyidagi uchta yo'nalishda rivoj topdi, bular, xalqaro siyosat va xavfsizlik sohasidagi munosabatlar, tashqi savdo va iqtisodiy aloqalar, madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlik.

O'zbekistonda qat'iy iroda va vazminlik bilan mamlakat hamda uning tevarak atrofidagi real vaziyatni inobatga olib, uzoq kelajakni oldindan ko'ra bilgan holda, tashqi siyosatning asosiy tamoyillarini ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasining asosiy qonuni-Konstitutsiyasiga davlat tashqi siyosatining bosh tamoyillarini o'zida aniq va ochiq-oydin ifoda etgan alohida bob kiritildi. Qomusning "Tashqi siyosat" deb nomlangan ushbu bobida O'zbekiston tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanishi bayon etildi. Ushbu bobning 17-moddasida "O'zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaat-lari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin", degan qoida qonunan muhrlab qo'yildi.

Tashqi aloqalarning qonuniy asosini yaratish jarayoni bilan bir paytning o'zida xorijiy mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlarni o'rnatish va izchil rivojlantirib borish mexanizmlarini zudlik bilan Istiqlolning dastlabki yillaridanoq mamlakat oldida turgan eng muhim vazifalar va murakkab xalqaro shart-sharoitlarni birday inobatga oluvchi, chuqur o'ylangan tashqi siyosat strategiyasi keng miqyosda amalga oshirila boshlandi. Natijada, O'zbekiston jahon hamjamiyati oldida o'z taqdiri va kelajagini o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan xolda, mustaqil ravishda belgilay oladigan zamonaviy suveren davlat sifatida namoyon bo'ldi.

Jumladan, 1992 yil 2 martida O'zbekiston o'z xoxish-irodasiga ko'ra

dunyodagi mustaqil davlatlarning asosiy qismini o'zida mujassam etgan eng yirik, eng universal xalqaro tashkilot-Birlashgan millatlar tashkilotiga (BMT) teng huquqli a'zo bo'lib kirdi. O'zbekistonning davlat bayrog'i Nyu-Yorkdagi BMT bosh qarorgohi oldidagi dunyo mamlakatlari bayroqlari qatorida hilpiray boshlagani-bu xalqimiz, ajdodlarimizning azaliy orzusi-milliy istiqlolimizning xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olin-gani ramziy ifodasi edi. Shu tariqa O'zbekiston mazkur tuzilma doirasida global hamda mintaqaviy masalalarni muhokama qilishda o'z manfaatlarini to'g'ridan-to'g'ri himoya qilish va ularni ilgari surish imkoniyatini birinchi bor qo'lga kiritdi. O'sha yiliyoq O'zbekiston Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti va boshqa qator xalqaro institutlarga a'zo bo'ldi, ular bilan o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantira boshladi.

Milliy manfaatlarni sobitqadamlik bilan ilgari surish, davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, Markaziy Osiyoda geosiyosiy muvozanatni saqlash; siyosiy, iqtisodiy, savdo-sotiq, transport va boshqa sohalardagi xalqaro aloqalarni keng diversifikatsiya qilish O'zbekiston tashqi siyosatining ustivor yo'nalishlari deb belgilab olindi. 1991-2001 yillarning o'zidayoq O'zbekistonni dunyoning 165 ta davlati tan oldi, 120 dan ortiq davlatlar bilan diplomatik munosabatlar o'rnatildi. Mamlakatimiz 100 dan oshiq xalqaro tashkilotlarning, shu jumladan BMT tizimidagi YuNESKO, YuNISEF, Butunjaxon sog'liqni saqlash tashkiloti, va boshqa global institutlar, Mustaqil davlatlar tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti kabi mintaqaviy tuzilmalarning to'laqonli a'zosi bo'ldi. O'zbekiston dunyoning 46 davlatida o'zining diplo-matik va konsullik vakolatxonalarini ochib ulgurdi. Toshkentda 44 xorijiy davlatlarning elchixonalari, 9 konsullik vakillari, 15 xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat ko'rsata boshladi.

O'zbekiston nafaqat siyosiy va iqtisodiy jihatdan barqaror mamlakat, xalqaro maydonda ishonchli xamkor sifatida, balki global va mintaqaviy xavfsizlikni, xalqaro barqarorlikni ta'minlashga bevosita daxldor davlat sifatida jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egalladi. Bu borada O'zbekiston xalqaro

“xavfsizlikning bo‘linmasligi tamoyiliga”¹¹ amal qildi, global-lashuv davrida har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo‘shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan chambarchas bog‘liq ekanligi, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini yaxshi anglagan xolda ish tutdi¹².

O‘zbekiston hukumati o‘zi ilgari surgan ilk xalqaro tashabbuslaridayoq Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta‘minlashga va shu orqali global barqarorlikni mustahkamlashga xissa qo‘shish yo‘lidan bordi. Xususan, Prezident Islom Karimovning mintaqaviy xavfsizlik tizimini yaratish va shu orqali jahonda tinchlik va barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan muhim tashabbuslari qatorida BMT 48-Bosh Assambleyasi minbaridan turib, 1993 yil 28 sentyabrda e‘lon qilgan Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zona tuzish g‘oyasini keltirib o‘tish mumkin. Ushbu tashabbusni amalga oshirish bo‘yicha olib borilgan murakkab xalqaro muzokaralar, tinimsiz sayi-harakatlar natijasida 2009 yili 21 martida mintaqadagi beshta davlat tomonidan imzolangan “Markaziy Osiyoda yadro qurolidan ozod hudud tuzish to‘g‘risidagi” shartnoma kuchga kirdi. Bu xalqaro hujjatga binoan mintaqa davlatlari yadroviy qurol ishlab chiqarmaslik va uni o‘z hududida joylashtirmaslik majburiyatini o‘z zimmlariga oldilar. Mazkur shartnomaning muhim jihatlaridan biri shundaki, u Markaziy Osiyodagi beshta davlatni bir-biriga bog‘lab turuvchi xavfsizlik sohasidagi eng birinchi va shu kungacha yagona fundamental shartnoma bo‘ldi.

O‘zbek xalqining "Qo‘shning tinch — sen tinch" degan maqoli mohiyatini, uning zamirida naqadar katta hayotiy haqiqat yotganini teran anglagan O‘zbekiston mintaqada barqarorlik va tinchlikni saqlashga yo‘naltirilgan yana qator dolzarb tashabbuslar ishlab chiqdi hamda ularni amalga tadbiiq etdi. Bu boradagi eng muhim xalqaro tashabbuslardan biri sifatida qo‘shni Afg‘onistondagi qurolli mo‘joroga chek qo‘yish, mintaqa xavfsizligi va barqarorligiga xavf solayotgan terrorizm va aqidaparastlik, noqonuniy qurol va giyohvand moddalar savdosiga

¹¹ Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: “O‘zbekiston”, 1997.- 167 va -325 b.

¹² Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma‘naviyat. 2008. – B.111.

qarshi kurashish bilan bog‘liq ham siyosiy, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy masalalarni qamrab olgan qator amaliy takliflar majmuasini keltirib o‘tish mumkin.

O‘z navbatida, O‘zbekiston rahbariyati bilan qabih niyatda tashkil etilgan voqealarning yanada rivojlanishiga, shafqatsiz zo‘ravonlikning avj olib, millatlararo nizodan davlatlararo mojaroga aylanishiga, yo‘l qo‘ymaslik, tomonlar orasida o‘zaro qahru g‘azabni jilovlash, ekstremizmning shiddatli tus olishining oldini olishda tezkor va keng qamrovli choralar ko‘rdi. “Faqat aql-idrok, oddiy haqiqatni, ya’ni ushbu zaminda ko‘p asrlar davomida o‘zbeklar va qirg‘izlar yonma-yon yashab kelgani va bundan buyon ham ularning farzandlari hamda avlodlari ko‘p asrlar mobaynida birga yashashini teran anglash bizga va xalqimizga mazkur fojining Markaziy Osiyoda qarama-qarshiliklarning yangi, keng ko‘lamli o‘chog‘iga aylanib ketishining oldini olishda muhim omil bo‘ldi.

Ana shunday vaziyatda O‘zbekiston tomonidan egallangan oqilona pozitsiya, “yetti o‘lchab, bir kes”, degan haqqoniy naqlga amal qilib ish tutilishi, jahon jamoatchiligi tomonidan yuqori baholandi. Bugungi O‘zbekiston Markaziy Osiyoda tinchlik va xavfsizlikni asrab avaylash, ushbu mintaqani barqaror taraqqiyot hududiga aylantirishga yo‘naltirilgan bosha qator tashabbuslarni ham ilgari surib, mintaqaviy masalalaridan tortib, butun Yer shari va insoniyat taqdiriga daxldor bo‘lgan ulkan vazifalarni ham o‘rtaga tashladi. Bular, Orolbo‘yi xududidagi ekologik fojea oqibatlarini bartaraf etish, mintaqadagi transchegaraviy suv zahiralaridan oqilona foydalanish, O‘rta Osiyo-Fors qo‘rfazi transport koridorini yaratishga qaratilgan taklif va tashabbuslar, chora-tadbirlardan iborat bo‘ldi.

O‘zbekistonning bugungi tarixida to‘plangan tajriba shuni ko‘rsatdiki Markaziy Osiyodagi muammolarni yechishda shu mintaqa davlatlarining o‘zlari eng asosiy rol o‘ynashlari darkor. Bu g‘oya 2012 yil 10 sentabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi”da rasman belgilab olindi.

Ushbu Konsepsiyada Markaziy Osiyo mintaqasiga alohida e’tibor qaratilgan

va “O‘zbekistonning hayotiy muhim manfaatlari shu mintaqa bilan bog‘liq” ekanligi rasman e‘tirof etilgan. Unda Markaziy Osiyo o‘zining muhim geosiyosiy joylashuvi va mineral-xomashyo resurslarining ulkan zahiralari ega ekanligi tufayli jahon miqyosida kuchli e‘tibor ob‘ektiga, hamda yirik davlatlarning strategik manfaatlari to‘qnashadigan hududga aylanib borayotgani ta’kidlangan. Yirik davlatlar Markaziy Osiyo davlatlarining o‘z rivojlanish modeli va siyosiy yo‘lini belgilashiga ta’sir o‘tkazishga urinayotgani, mintaqada o‘z maqsadlarinigina ko‘zlayotgan tashqi kuchlarning o‘zaro raqobati kuchayib borayotgani ko‘rsatilgan. Konsepsiyada dunyoning yirik davlatlari tomonidan mintaqada olib borilayotgan o‘zaro geopolitik raqobat inobatga olinib, “Markaziy Osiyo muammolari tashqi kuchlarning aralashuvisiz, mintaqadagi davlatlarning o‘zlari tomonidan yechilmog‘i zarur”, degan pozitsiya bayon etilgan.

Konsepsiyada xavfsizlikka rahna solayotgan an’anaviy va noan’anaviy tahdidlarning turlari kengayib borayotgani, mamlakat chegaralari yaqinida keskinlik va tanglik o‘choqlarining saqlanib qolayotgani e‘tirof etilgan. Ma-na shu munosabat bilan ushbu hujjatda bayon etiladiki, O‘zbekiston tinchlik-sevar siyosat yuritadi va harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaydi, har qan-day davlatlararo tuzilmalar harbiy-siyosiy blokka aylangan taqdirda, ular-dan chiqish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Konsepsiyada birinchi bor quyidagi muhim qoidalar muhrlab qo‘yildi: O‘zbekiston o‘zini qo‘shni davlatlardagi qurolli ziddiyatlarga tortilishini oldini olish maqsadida tegishli choralar-ni ko‘radi; o‘z hududida xorijiy davlatlarning harbiy bazalari va ob‘ektlari joylashtirilishiga yo‘l qo‘ymaydi; O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari xorijdagi tinchlikparvarlik operatsiyalarida ishtirok etmaydi.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasi”da ham bu masalaga aloxida e‘tibor qaratilgan. Xususan unda qayd etilishicha, O‘zbekiston xalqaro munosabatlarda tinchliksevarlik yo‘lidan borib, xalqaro va davlatlararo muammolarni urush yo‘li bilan hal etishga qat’iyan qarshi chiqadi va jahon hamjamiyati davlatlari o‘rtasida harbiy mojarolar chiqishini preventiv diplomatiya vositasida bartaraf qilishda faol ishtirok etishni,

ziddiyatlarni keskinlashtiradigan sabablarga barham berishga yoki ularni yengishga kuch-g'ayrat sarflashni o'z tashqi siyosatining asosiy vazifasi deb hisoblaydi, deb belgilab qo'yildi. Mudofa doktrinasiga binoan, O'zbekiston jahondagi birorta ham davlatni o'zining dushmani deb hisoblamaydi, o'z harbiy qo'shinlarini faqat milliy chegaralar doirasida joylashtirish, ayni vaqtda o'z fuqarolarining hayoti va qadriyatini himoya qilish vazifasini o'z zimmasiga oladi, o'zini o'zi mudofaa qilishdek ajralmas huquqini amalga oshiradi, davlatning harbiy qudrati va mudofaa qobiliyati oqilona zarurat darajasida bo'lishini ta'minlaydi, xorijiy davlatlar bilan harbiy-texnikaviy hamkorlikni izchillik bilan rivojlantirib boradi.

Bunday oqilona siyosat butun dunyoda qurolli mojarolarning soni ko'payib borayotgan bugungi davrda umumbashariy tinchlikni saqlash yo'lida milliy darajada tashlangan muhim qadamlardan biri bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, hozirgi zamonda dunyo hamjamiya-tiga izchil interatsiyalashuvda ta'minlashda eng avvalo harbiy kuchga emas, balki oqilona siyosat va diplomatiya, aql-idrok, fikr-mulohaza hamda izchil rivojlanib borayotgan iqtisodiy salohiyat xal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Davlat dasturlari va hududiy dasturlar doirasida aniq maqsadlarga yo'naltirilgan chora-tadbirlarning belgilanishi.

Davlat dasturining «Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish» deb nomlangan birinchi yo'nalishini amalga oshirishda davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini kuchaytirish, qonun ijodkorligi faoliyatining sifatini tubdan yaxshilash, davlatning hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish nazarda tutilgan.

Davlat boshqaruvini takomillashtirish, eng avvalo davlat xizmatini isloh qilish, iqtisodiyotda davlat boshqaruvini kamaytirish, davlat va xususiy sektorlarning o'zaro foydali hamkorligining zamonaviy shakllarini, «Elektron hukumat» tizimini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Xalq bilan samarali muloqotni ta'minlash Davlat dasturining eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri bo'ldi. Shu munosabat bilan jamoatchilik nazoratini

takomillashtirish, nodavlat notijorat tashkilotlarini, ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish, shuningdek mahallaning jamiyat hayotidagi rolini kuchaytirish nazarda tutilmoqda.

Oliy Majlis 2001 yil 6 dekabrda qabul qilgan “O‘zbekiston Respublikasi referendumini o‘tkazish to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, 2002 yil 27 yanvarda referendum o‘tkazildi. Uning yakunlari asosida “Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonunning qabul qilinishi qonun chiqaruvchi hokimiyatni tubdan isloh qilishning huquqiy asoslarini belgilab berdi.

2002 yil 12 dekabrda Oliy Majlisning 10-sessiyasi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida” va “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonunlar hamda ularni amalga oshirish to‘g‘risida qarorlarqabul qilindi. 2003 yilning 24 aprelida esa “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” Qonun qabul qilindi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida to‘plangan parlamentarizm tajribasi, o‘zbek xalqining qadriyatlari va mentalitetini hisobga olgan holda, ishlab chiqilgan ushbu qonunlar ikki palatali parlamentimiz vakolatlari va faoliyatining tashkiliy shakllarini aniq belgilab berdi.

Shunday qilib, mamlakatimiz tarixida ilk bor O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat tarzda ish boshladi.

Mamlakat parlamentining bosib o‘tgan yo‘lini tarixiy nuqtai nazardan tahlil etar ekanmiz, uni uchta asosiy davrga bo‘lish, mumkin. Birinchi davr – 1991-1994 yillar, ikkinchi davr – 1995-2004 yillar uchinchi davr – 2005yildan hozirgi paytgacha.

Birinchi davr – 1991-1994 yillar. O‘tish davri parlamenti deb atash mumkin bo‘lgan oxirgi 12-chaqiriq Oliy Kengash deputatlari davlat boshqaruvining mutlaqo yangi organlarini tashkil etishning, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyat qurish-ning huquqiy negizi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qildi. Parlament yosh davlatning

suverenitetini mustahkamlashga qaratilgan “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi-ning Davlat madhiyasi to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi va boshqa mustaqilligimizni huquqiy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan nihoyatda muhim bo‘lgan bir qator qonunlarni qabul qildi.

Oliy Kengashning o‘n ikkinchi sessiyasi 1994 yil 23 sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga birinchi saylovni 1994 yil 25 dekabrda o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Uch bosqichda (1994 yil 25 dekabrda, 1995 yil 8 va 22 yanvarda) bo‘lib o‘tgan saylov yakunlariga binoan 245 nafar deputatdan iborat tarkibdagi parlament shakllantirildi. Saylov ko‘p partiyaviylik asosida o‘tkazildi.

Ikkinchi davr – 1995-2004 yillar. Oliy Kengash o‘rniga O‘zbekiston Respublikasining bir palatali parlamenti - Oliy Majlis shakllantirildi. *Birinchi chaqiriq* (1995-1999 yillar) Oliy Majlis tarkibida O‘zbekiston Xalqdemokratik partiyasidan 69 nafar, «Adolat» sotsial-demokratik partiyasidan 47, «Vatan taraqqiyoti» partiyasidan 14, “Milliy tiklanish» demokratik partiyasidan 7 nafar deputat bo‘lib, deputatlarning qolgan qismini hokimiyat vakillik organlaridan ko‘rsatilgan shaxslar tashkil etdi.

Ikkinchi chaqiriq (2000-2004 yillar) Oliy Majlisga saylov hokimiyat vakillik organlari bilan bir qatorda beshta siyosiy partiya va saylovchilar tashabbuskor guruhlari ishtirokida bo‘lib o‘tdi. Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisda 11 nafar deputatni birlashtirgan “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi, 10 nafar deputatdan iborat “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi, 20 nafar deputatga ega bo‘lgan “Vatan taraqqiyoti” partiyasi fraksiyasi, 34 nafar deputatni tashkil etgan “Fidokorlar” milliydemokratik partiyasi fraksiyasi, 49 nafar deputatdan iborat Xalqdemokratik partiyasi fraksiyasi, 107 nafar kishidan iborat hokimiyat vakillik organlaridan saylangan deputatlar bloki va 16 nafar saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan saylangan deputatlar bloki ro‘yxatga olindi.

Keyinchalik “Vatan taraqqiyoti” va “Fidokorlar” partiyalari bitta “Fidokorlar” partiyasiga birlashganligi munosabati bilan ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning ikkinchi sessiyasida ularning parlamentdagi fraksiyalari a’zolari ham birlashib, 54 nafar deputatni birlashtirgan bitta fraksiyani tashkil etdilar.

Uchinchi davr-2005 yildan hozirgi paytgacha. Milliy parlamentarizm rivoj topishining uchinchi davri Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2005 yil 28 yanvardagi qo’shma majlisidan boshlanib, bunda yangi ikki palatali Oliy Majlis deputatlari va senatorlari amalda o’z ishlariga kirishdilar. Mamlakatimiz qonun chiqaruvchilarining mazkur tarixiy anjumanida O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov jamiyatimizni demokratlashtirish hamda yangilash yuzasidan dasturiy ma’ruza qilib, mamlakatimizni 2005 yilda va uzoq muddatli istiqbolda isloh etish hamda modernizatsiya qilish bo’yicha asosiy vazifalarni ilgari surdi.

Bugungi kunga kelib, Oliy Majlis palatalari faoliyatining huquqiy asoslari to’la shakllandi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda qonun chiqaruvchi hokimiyatning salohiyati o’sib, sifat jihatidan o’zgardi. Bu yillarda ko’p partiyaviylik asosida qonun chiqaruvchi hokimiyatga saylovlar natijasida O’zbekistonda zamonaviy qonun chiqaruvchi hokimiyat karor topdi.

Ta’kidlash joizki, ikki palatali parlament tashkil etilgach, O’zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi hokimiyat o’z taraqqiyotida yangi pog’onaga ko’tarildi. Eng asosiysi, garchi qonunchilik jarayoni ancha murakkablashgan bo’lsa-da, qabul qilingan qonunlarning sifati sezilarli darajada oshdi. Qonunlarni qabul qilishda siyosiy partiyalarning roli kuchaydi. Qonun loyihalarini partiyalarning fraksiyalarida oldindan ko’rib chiqish, Qonunchilik palatasi yalpi majlislarida huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilishda ularning fikrlarini e’tiborga olish amaliyoti shakllandi.

O’zbek milliy parlamenti faoliyatida ham demokratik davlatlarning parlamentlariga xos bo’lgan xususiyatlar, vakillik, qonunchilik, hokimiyat usti-dan nazoratni amalga oshirish, shuningdek, davlatning ichki va tashqi siyosatida asosiy yo’nalishlarni belgilashdek universal vazifalar namoyon bo’ldi. Mana shu

vazifalarning amalga oshirilishi barobarida xalq hokimiyatchiligi va davlatning qonuniyligini ta'minlash, davlatning demokratik, dunyoviy, ijtimoiy va huquqiy xususiyatlarimuhim ahamiyat kasb eta boshladi.

“Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiyalashda siyosiy partiyalar rolini kuchaytirish haqi-da”gi Konstitutsiyaviy qonun hamda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitu-siyasining ba’zi moddalariga (89-modda; 93-moddaning 15-paragrafi; 102-moddaning 2-qismi) o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun loyihalarining sharhlarida qayd etiladiki, “Bu borada ayrim xorijiy mamlakatlar davlat-huquqiy, siyosiy tizimida yangitdan saylangan parlamentda mutlaqo ko‘pchilik o‘rinni egallagan partiyaning hukumatni shakllantirish huquqini qo‘lga kiri-tishi va uning yetakchisi yoki vakili Bosh vazir lavozimiga da’vogarlik qilishini nazarda tutadigan tajriba ham mavjud. Bunday model demokratik rivojlanishning uzoq yo‘lini bosib o‘tgan va elektorati yetarli darajadagi yuksak siyosiy va ijtimoiy tafakkurga ega bo‘lgan davlatlardagina ko‘llaniladi.

Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatda parlament islohotlarining rivojlantirilishi masalasi ikki palatali parlamentning tashkil topishi va uning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida tobora mavqei rivojlanib borayotganligida aniq namoyon bo‘layotganligini kuzatish mumkin. Ikki palatali parlamentning shakllantirilishi, uning faoliyat yuritishi masalalariga doir huquqiy asoslarning, shuningdek, saylovlarning demokratik andozalar asosida yanada takomillashtirilib borilishi, nihoyat, nomarkazlashtirish, ma’muriy islohotlarning jadallik bilan olib borilishi mamlakatni siyosiy modernizatsiyalashuv jarayonining asosini tashkil etdi.

Xullas, mamlakatimizda milliy parlamentni shakllantirish jarayoni qisqa bo‘lsa-da, tarkibiy-tuzilmaviy va sifat jihatidan muhim bosqichni bosib o‘tdi.

Nazorat savollari:

1. Harakatlar strategiyasining maqsadi.
2. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni qachon qabul qilindi?

3. O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlariga o‘tishning huquqiy asoslarini yaratilishi
4. O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy sohani tartibga solish borasidagi islohotlar bosqichlari.
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ba’zi moddalari o‘zgartishlarini izohlang.
6. “Milliy tiklanish» demokratik partiyasi g‘oyasini izohlang.

4 – mavzu: Davlat va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari

Reja:

1. Davlat boshqaruviga yangicha uslublarni joriy etish.
2. Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari.

Tayanch iboralar: mafkuraviy tamoyillar, Milliy davlatchilik asoslari, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar sohalar, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish.

Davlat boshqaruviga yangicha uslublarni joriy etish

Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish yo‘nalishida ko‘rsatilgan chora-tadbirlarni ro‘yobga chiqarish uchun milliy valyuta va narxlarning barqarorligini ta’minlash, valyutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, eksportga mo‘ljallangan mahsulot va materiallar ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, transport-logistika infratuzilmasini, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda xorijiy investorlar uchun investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, soliq ma‘murchiligini yaxshilash, bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish, ko‘p tarmoqli fermer

xo'jaliklarini rivojlantirish, shuningdek turizm industriyasini jadal rivojlantirish nazarda tutilgan.

Shuningdek, ushbu yo'nalish xususiy mulkni, moliya bozorini himoya qilish, qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash, zargarlik sohasini rivojlantirish, ayrim milliy korxonalarining aksiyalarini (IPO) nufuzli xorijiy fond birjalariga dastlabki tarzda joylashtirishga tayyorgarlik ko'rish chora-tadbirlarini ham o'z ichiga oladi.

2017-2021 yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSh dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro'yobga chiqarish rejalashtirilmoqda. Natijada keyingi 5 yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 baravar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash tarmog'i ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshadi.

Ijtimoiy sohani rivojlantirish yo'nalishida aholi bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiyalash, aholini elektr energiya, gaz bilan ta'minlashni yaxshilash, aholining muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish, maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Xususan, hududlarni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha qariyb 25 mingta investitsiya loyihasini ro'yobga chiqarish hisobiga 256,4 ming ish o'rni tashkil etish orqali aholini ish bilan ta'minlash dasturlarini to'liq ijro etish nazarda tutilgan. Ishsizlik darajasi eng yuqori bo'lgan mintaqalarda 46,8 ming yangi ish o'rni tashkil etish, tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun ta'lim muassasalarining 10 ming nafar bitiruvchisiga kreditlar ajratish rejalashtirilgan.

Katta yoshli avlodni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy nafaqalar berish tartibini takomillashtirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish chora-tadbirlari kiritilgan. Jumladan, 78 ta tuman tibbiyot birlashmasini, 7 ta shahar va 2 ta viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazini qayta qurish, tez tibbiy yordam xizmatini 1200 ta

maxsus avtotransport bilan ta'minlash rejalashtirilgan.

Qishloq joylarda 15 mingta arzon uy-joy, 415 kilometrlik suv ta'minoti quvurlari, 316 kilometrlik gaz ta'minoti quvurlari va 291 kilometrlik ichki yo'llar qurish rejalashtirilgan. Aholiga transport xizmatlari ko'rsatish sifatini yaxshilash maqsadida 86 ta yangi avtobus yo'nalishini joriy etish va 537 ta zamonaviy avtobus xarid qilish nazarda tutilgan.

Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish yo'nalishi doirasida respublikaning konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini himoya qilishga doir chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish, kiberxavfsizlik sohasida axborot, normativ-huquqiy asoslar tizimini takomillashtirish, aholini favqulodda vaziyatlardan xabardor qilish tizimini tashkil etish va rivojlantirish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, shuningdek Millatlararo munosabatlar sohasidagi siyosatning ustuvor yo'nalishlari konsepsiyasini hamda Diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini ishlab chiqish nazarda tutilgan.

Shu bilan birga, xorijiy hamkorlar bilan siyosiy-diplomatik sohadagi hamkorlikni rivojlantirishga doir «Yo'l xaritalari»ni ishlab chiqish, O'zbekistonning xorijiy hamkorlar bilan 2017 yilga mo'ljallangan savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, texnologik va moliyaviy-texnik hamkorligini tubdan rivojlantirish va kengaytirish rejalashtirilgan.

Davlat dasturining yuqorida qayd etilgan barcha chora-tadbirlarini amalga oshirishga 37,7 trillion so'm va 8,3 milliard AQSh dollari yo'naltiriladi.

Kelgusi besh yilda mamlakatni rivojlantirishning strategik va ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida Farmon asosida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti boshchiligida Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Milliy komissiya mavjud.

Davlat dasturiga kiritilgan tadbirlar to'liq, o'z vaqtida va sifatli bajarilishini nazorat qilish Harakatlar strategiyasi beshta yo'nalishining har biri bo'yicha tuzilgan komissiyalar zimmasiga yuklatilgan.

Ushbu komissiyalar zimmasiga nafaqat yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirish, balki 2018 — 2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tegishli yillik davlat dasturlari loyihalarini tayyorlashgan.

Harakatlar strategiyasining amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasining mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalash, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish, qonun ustuvorligini, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlat chegaralarining daxlsizligini, jamiyatda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash yo'lidagi shaxdam harakatlariga yangi kuch bag'ishlaydi.

Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari.

Davlat dasturining ikkinchi yo'nalishi qonun ustuvorligini va sudning chinakam mustaqilligini ta'minlash chora-tadbirlarini nazarda tutadi. Jumladan, qarorlar qabul qilishda sudlar mustaqilligini ta'minlashi kerak bo'lgan Oliy sud kengashini tuzish, professional sudyalar korpusini shakllantirish, sudyalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Ma'muriy sudlarni, xo'jalik sudlari tizimida mintaqaviy apellyatsiya sudlarini tuzish, sudya yordamchisi lavozimini ta'sis etish orqali sudlarni kelgusida ixtisoslashtirish va ularning devonini mustahkamlash nazarda tutilgan.

Sansalorlikka va ishlarning ko'rib chiqilishi sudlar tomonidan asossiz cho'zib yuborilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida protsessual qonun hujjatlarini takomillashtirish, quyi instansiya sudlarining kamchiliklarini mustaqil bartaraf etish va uzil-kesil qaror qabul qilish yuzasidan yuqori sud instansiyalarining vakolatlarini kengaytirish rejalashtirilgan.

Ushbu yo'nalish doirasida barcha huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari, davlat hamda xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlarining xalq bilan bevosita muloqotini yo'lga qo'yish chora-tadbirlarini ro'yobga chiqarish, aholi ularga erkin murojaat eta olishini ta'minlash,

jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda erkinliklari buzilganligi to'g'risidagi murojaatlarning, xabarlarining o'z vaqtida olinishini ta'minlash nazarda tutilgan.

Huquqbuzarliklarning oldini olish tizimiga, jinoyatchilikka qarshi kurashish va jamoat tartibini saqlash bo'yicha ichki ishlar organlarining faoliyatini tubdan takomillashtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Shuningdek ushbu yo'nalish 2018 — 2021 yillarda jinoyat va jinoyat-protsessual qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish konsepsiyasini ishlab chiqishni, sud, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari xodimlarini o'qitish, tanlash va joy-joyiga qo'yish tizimini takomillashtirishni, murojaatlarni muntazam tahlil qilishni hamda vaqti-vaqti bilan uning natijalarini e'lon qilib borishni, advokaturani rivojlantirishni, notariat tizimini va FHDYo organlarini isloh qilishni ham o'z ichiga oladi.

Qabul qilingan qonun hujjatlarining so'zsiz va o'z vaqtida bajarilishida normativ-huquqiy hujjatlarni o'z vaqtida tarqatish, ijrochilarga va aholiga ularning mohiyati va mazmunini tushuntirishning samarali mexanizmlarini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, qonun hujjatlarini tarqatishning yaxlit tizimi shakllanmagan, normativ-huquqiy hujjatlarni, shu jumladan rasmiy tarqatmalarni ijrochilarga yetkazishning, tushuntirish ishlarini olib borishning tartibi va muddatlari hamda bu sohadagi nazorat o'rnatilmagan.

Fuqarolarni huquqiy xabardor qilish, asosan, an'anaviy ommaviy axborot vositalari orqali qog'oz ko'rinishida amalga oshirilmoqda, bu esa huquqiy axborotning to'liqligi va erkin foydalanilishiga, uning o'z vaqtida tarqatilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunda aholining ijtimoiy faol qatlamlari, shu jumladan, tadbirkorlar va yoshlarning axborotga bo'lgan ehtiyoj va so'rovlari inobatga olinmayapti.

Mavjud kamchiliklar mamlakatda olib borilayotgan islohotlarni amalga oshirish, jamiyatda qonun ustuvorligi va qonuniylik tamoyillari samaradorligiga

salbiy ta'sir qilmoqda.

Normativ-huquqiy hujjatlarni tarqatish tizimini tubdan takomillashtirish, ijrochilar va aholini qonun hujjatlarining mohiyati va ahamiyati haqidagi huquqiy axborot bilan ta'minlashning sifatini oshirish, ushbu sohadagi ishlarni tashkil etishga prinsipial yangi yondashuvlarni ishlab chiqish maqsadida:

1. Qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni, ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni ijrochilarga o'z vaqtida yetkazishni ta'minlash, ularning mohiyati va ahamiyatini tushuntirish, shuningdek tegishli qonun hujjatlari matnidan moneliksiz foydalanish imkonini yaratish va o'z tarkibiy va hududiy bo'linmalarida qonun hujjatlari normalarining bir xilda qo'llanilishi ustidan doimiy nazoratni amalga oshirish vazirlik, davlat qo'mitalari, idoralar, xo'jalik boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining muhim vazifalari etib belgilangan.

2. 2017 yilning fevralidan shunday tartib o'rnatilsinki, unga ko'ra:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritilayotgan qonun loyihalari matnlarida tegishli qonunlar qabul qilingandan keyin uning ijrosini tashkil etish, ijrochilarga yetkazish va aholi o'rtasida mohiyati va ahamiyatini tushuntirishni tashkil etishga mas'ul bo'lgan aniq davlat organlari, shu jumladan davlat boshqaruvi organlari ko'rsatilishi shart;

hujjat nazoratni amalga oshirish yuklatilgan mas'ul davlat organi yoki tashkiloti, shuningdek, mansabdor shaxslar tomonidan imzolangandan keyin, uni ijro etish, ijrochilarga yetkazish hamda mohiyati va ahamiyatini aholi o'rtasida tushuntirish yuzasidan chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanadi;

normativ-huquqiy hujjatlar imzolangan kuni axborot-tahliliy materiallari bilan birga (normativ-huquqiy hujjatning konsepsiyasi bayon etilgan tushuntirish xati, o'zgartirish va qo'shimchalar tushuntirilgan holdagi taqqoslash jadvali) qog'oz va elektron shaklda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga yuboriladi;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bir kunlik muddatda normativ-huquqiy hujjatlarni va tegishli axborot-tahliliy materiallarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan ro'yxat bo'yicha barcha davlat

organlari va tashkilotlariga elektron shaklda yetkazilishini ta'minlaydi;

davlat organlari va tashkilotlari normativ-huquqiy hujjatlarning axborot-tahliliy materiallari asosida, qabul qilingan qonun hujjatlarini ijrochilarga yetkazish hamda mohiyati va ahamiyatini aholiga tushuntirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlaydi.

3. Qonun hujjatlarini tarqatish, ularning mohiyati va ahamiyatini ijrochilar va aholiga tushuntirish sxemasi tasdiqlangan.

4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga quyidagi qo'shimcha vazifa va funksiyalar yuklatilgan:

normativ-huquqiy hujjatlarni barcha davlat organlari va tashkilotlariga o'z vaqtida yetkazish, ularning normativ-huquqiy hujjatlarni tarqatish bo'yicha faoliyatini samarali muvofiqlashtirish, uslubiy rahbarlik va nazorat qilish;

davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini jalb qilgan holda jamiyatda huquqiy targ'ibotni tashkil etish;

